

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUTI**

**Veterinariya, zootexniya va qorako‘lchilik fakulteti  
5440100 - Veterinariya yo‘nalishi**

**Yuzboyev Zuhridin Abdutolib O‘g‘lining**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: «Yangi tetratsiklin preparatlar farmakologiyasi»  
(referativ)**

**Ilmiy rahbar, dotsent:**

**Xoliqov.A.A.**

**Veterinariya, zootexniya va  
qorako‘lchilik fakulteti  
dekani, dotsent \_\_\_\_\_ H.B.Niyozov  
“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015 yil**

**“Hayvonlar anatomiyasi,  
fiziologiyasi, jarrohlik va  
farmakologiya” kafedrası  
mudiri, dotsent \_\_\_\_\_ B.D.Narziyev  
“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015 yil  
№ \_\_\_ -sonli yig‘ilish bayoni**

**SAMARQAND – 2015**

## MUNDARIJA

<b>№</b>		<b>bet</b>
<b>1</b>	<b>Kirish</b>	<b>3</b>
<b>1.1</b>	Mavzuning dolzarbligi	<b>11</b>
<b>2</b>	<b>Adabiyotlar sharxi</b>	<b>17</b>
<b>2.1</b>	Antibiotiklarning tarixi	<b>17</b>
<b>2.2</b>	Antibiotiklarning xalq xo‘jaligidagi dolzarbligi	<b>20</b>
<b>2.3</b>	Antibiotiklarni to‘g‘ri (ratsional) qo‘llash tartiblari va asoratlari	<b>22</b>
<b>2.4</b>	Antibiotiklar va ularning sinflari	<b>32</b>
<b>3</b>	<b>Yangi tetratsiklinli preparatlar farmakologiyasi</b>	<b>44</b>
<b>3.1</b>	Tetratsiklinlarni hayvonlar organizmiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri.	<b>44</b>
<b>3.2</b>	Tetratsiklinlarni ximioterapevtik va ximioprofilaktik ta’sirlari	<b>45</b>
<b>3.3</b>	Tetratsiklinli preparatlar farmakologik tasnifi.	<b>47</b>
<b>4</b>	<b>Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi</b>	<b>51</b>
<b>5</b>	<b>ASM-da ishlab chiqarish va menejment asoslari</b>	<b>54</b>
<b>6</b>	<b>Xulosalar</b>	<b>56</b>
<b>7</b>	<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</b>	<b>57</b>
<b>8</b>	<b>Ilova va Internet malumotlari</b>	<b>59</b>

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir” mavzusidagi ma‘ruzasida ta’kidlanganidek, 2014 yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, birinchi navbatda, iqtisodiyotimiz va uning etakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o‘shish sur‘atlariga erishganimizni ta’kidlash joiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o‘ydi.

2014 yilda iqtisodiyotimizning etakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4milliard 200 million dollaoga teng bo‘lgan 154 ta yirik ob‘ekt foydalanishga topshirildi.

Qishloq xo‘jaligida erishilgan yutuqlar haqida gapirganda, shuni alohida ta’kidlashni istardimki, bu sohada biz qo‘lga kiritgan ulkan marralar, avvalo, fermerlarimiz, qishloq xo‘jaligi mutaxassisleri va qishloq taraqqiyoti bilan bog‘liq tarmoqlarda mehnat qilayotgan yuz minglab yurtdoshlarimizning fidokorona mehnati, bilim va tajribasining samarasidir. Dehqon va fermerlarimizning mardonavor mehnati, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobidan 3 million 400 ming tonnadan ziyod paxta, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarixida birinchi marta 8million 50 ming tonnalik yuksak g‘alla xirmoni bunyod etildi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari sonini ko'paytirishni rag'batlantirish, servis xizmatlari tarmog'ini tashkil etishga doir chora tadbirlar dasturining amalga oshirishi natijasida chorvachilikni rivojlantirishda ijobiy siljishlar qayd etildi. Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida barcha toifadagi xo'jaliklarida qoramollar bosh soni 10 mln 994,6 ming boshni shundan sigirlar 4 mln 84,8 ming boshni; qo'y va echkilar 18 mln 447,4 ming boshni, parrandalar 56 mln 195 ming boshni tashkil etdi. 2014 yilda 1 mln 906,5 ming tonna tirik vazinda go'sht, 8 mln 432,8 ming tonna sut, 4 mlrd 949,9 mln dona tuxum, 46,5 ming tonna baliq 8,7 ming tonna asal ishlab chiqarildi.

Vazirlar Maxkamasi tomonidan 2014 yil uchun tasdiqlangan dasturlar ijrosi yuzasidan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi chorva mollariga 2613 ta zooveterinariya punktlari tomonidan zooveterinariya servis xizmatlari ko'rsatildi. Respublikada foaliyat yuritayotgan 410 ta qoramolchilik naslchilik xo'jaliklarida 7,8 ming bosh naslli mollar tayrlanib ouksionlarda sotish tashkil etildi.

Ta'lim sohasida o'quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. Ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash amalga oshirildi.

2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash ishlari bajarildi.

2015 yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati 108 foiz darajasida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu borada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 6 foizga ko'payishi belgilanmoqda.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini

ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas.

Buning uchun:

Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur.

Ikkinchidan. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bu sohaga to'liq erkinlik berish, bu yo'lda g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish eng muhim ustuvor vazifadir.

Uchinchidan. Iqtisodiyotimizda davlatning ishtiroki qay darajada ekanini tanqidiy baholash, uni strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirish zarurligini alohida ta'kidlashni o'rinli deb bilaman.

To'rtinchidan. Korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi.

Beshinchidan. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirishningeng muhim manbai va omilidir.

Oltinchidan. Rivojlangan infratuzilmani tashkil etmasdan, birinchi navbatda, axborot-kommunikatsiya tizimi, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya qurilishini taraqqiy ettirmasdan turib, iqtisodiyotimizni tarkibiy jihatdan o'zgartirishga erishish mumkin emas.

Aholi farovonligi va turmush darajasini muttasil oshirish bilan bog'liq masalalar doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

2015 yilga mamlakatimizda Keksalarni e'zozlash yili, deb nom berganimiz zamirida ham mohiyat e'tibori bilan ana shunday ezgu maqsadlar mujassam ekani,

o‘ylaymanki, barchamizga yaxshi ma’lum. Bugungi tinch va obod hayotimizni barpo etishga beqiyos xizmatlari singgan, xonadonlarimizning fayzi bo‘lgan mo‘tabar keksalarimizning farovon va munosib umr kechirishlari uchun keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimizdir.

“ O‘zbekistonda oziq- ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralari” mavzusidagi halqaro konferensiyaning oshilish marasimidagi O‘zbekiston Prezidenti I. Karimovning nutqida ta’kidlanganidek, oziq – ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘tkazilayotgan halqaro ekspert tadqiqotlari jahonda va uning ayrim mintaqalarida ushbu muammo bilan bog‘liq murakkab vaziyat yuzaga kelayotgani jiddiy tashvish va havotir uyg‘atayotganini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda mazkur muammo jahon hamjamiyati uchun o‘ta dolzarb va jiddiy tahdidlar qatoriga kiritilmoqda.

Bu borada ovqat bilan birga o‘rnini hech narsa bosalmaydigan aminokislotalar, vitaminlar, mineral moddalar, mikroelementlar va organizmda o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydigan boshqa moddalarning ham iste’mol qilinishi inson hayoti uchun eng muhim ahamiyatga egadir. Ana shu foydali moddalar, vitamin va mikroelementlar katta miqdorda va etarli darajada faqatgina sabzavotlar, meva va uzum tarkibida, chorvachilik mahsulotlaridan go’sht, sut, tuxumda bo‘ladi va ularning o‘rnini boshqa hech qanday mahsulot bosa olmaydi.

O‘zbekistonda shakllangan ko‘p asrlik an’anaviy sabzavotchilik va bog‘dorchilik madaniyati azaldan mahalliy o‘g‘itlardan foydalanishni ko‘zda tutadigan biologik dehqonchilik prinsiplariga asoslangan ( mahalliy o‘g‘it bilan chorvachilik ta’minlaydi). Bu genlarni modifikatsiya qilish texnologiyalarini qo‘llamasdan, juda mazali ta’mgga va istemol xususiyatlariga ega bo‘lgan ekologik toza meva va sabzavotlar etishtirish imkonini beradi. Biz mineral o‘g‘itlar, pestitsidlar va shu kabi vositalarning o‘rniga doimo ko‘plab kelayotgan va biz uchun ustuvor bo‘lgan organik o‘g‘itlardan foydalanishni afzal deb bilamiz. Biz dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilmoqdamiz. O‘zbekiston

o'rik, olxo'ri, uzum, yong'oq, karam va boshqa ko'plab meva va mabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha dunyoda shunday mahsulotlarni etkazib beradigan o'nta etakchi dalat qatoriga kiradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida chorvachilik tarmog'ida xususiy mulk ustunligi ta'minlandi. Asosiy chorvachilik mahsulotlari etishtiruvchi xo'jaliklar sifatida dehqon xo'jaliklari asosiy o'rinni egallaydi. Natijada keyingi yillarda chorvachilik mahsulotlari iste'mol miqdori barqaror o'sib bordi. Jumladan, aholi jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 1990 yilda 31 kg ni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 38 kg ni; sut va sut mahsulotlari iste'mol qilish 183 kg dan 239 kg ni; tuxum iste'mol qilish 97 donadan 138 donani tashkil etdi.

CHorvachilik va veterinariya sohalaridagi islohatlarni shu sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar amalga oshiradi. SHuning uchun mamlakatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, respublikamiz ilmiy salohiyotini jahon andozalari darajasiga ko'tarish, ilm- fan yutuqlarini ishlab chiqarishga keng joriy etish masalasiga katta e'tibor berilmoqda

Bugungi kunda yoshlar uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Fanni chuqur egallab katta yutqqlarga erishiman degan talabayu tadqiqotchi uchun barcha eshiklar ochiq. Tirishqoqlik bilan, sabr-bardosh bilan izlansa, aqlini ishlatsa, ilmu-fanning ochilmagan ko'riqlari juda ko'p, ularni kashf ulkan yangiliklar muallifiga aylanish mumkin. Xorijning eng mashhur akademiya va unerversitetlarida tajriba orttirish, o'qish – o'rganish imkoniyatlari ham mavjud. Bularning bari istiqlol tufayli amalga oshmoqda.

CHorva mollarini o'z vaqtida to'g'ri va sifatli oziqlantirish, ularni veterinariya ko'rigidan (dispanserizatsiya) o'tkazish, kasallangan molni o'z vaqtida ajratish va davolash, molxonalarda muntazam ravishda dezinfeksiya, deratizatsiya va dezinseksiya choralarini o'tkazib turish, mollarni zoogigenik talablar asosida parvarishlash, ularda kunlik motsion (sayrqilish) bo'limiga erishishi kabilar veterinariya mutaxassislarining asosiy vazifalari hisoblanadi. Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun veterinariya mutaxassisida chuqur bilim, malaka va

amaliy tajriba bo'limi zarur. Bu fazilatlar ta'lim muassasalarida beriladi va shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi PQ-308-son "SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga chetdan qoramollar zooveterinariya, asbob uskunalari olib kelish uchun tegishli imtiyozlar berishga hamda chorvachilik sohasidagi mavjud muammolar hal qilib berilganiga qaramasdan bugungi kunda tashkil qilingan zooveterinariya punkitlarining va chorva mollarini suniy qochirish punkitlarining 62 foizi to'liq jihozlanmagan, ular uchun zarur asbob uskunalar olib kelish uchun Ishtihon, Toyloq tumanlarida qoniqarsiz tashkil etilgan chorva mollarini sun'iy qochirish bo'yicha tuzilgan shartnomalar viloyatda 20% bajarilgan xolos. SHaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga qoramol sotib olish uni joriy yilda mikro kreditlar berish ishlari Bulung'ur, Samarqand, Urgut tumanlarida yaxshilashgan. Viloyat tumanlarida chorva mollari uchun oziqa ekinlari etishtirish dag'al hashak jamg'arish ishlarida aniq rejalashtirilmasdan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklariga don korxonalarini tomonidan tashkil etilgan shaxobchalar orqali omixta em sotish ishlari Ishtihon, Narpay tumanlarida qoniqarsiz ahvolda.

SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida:

SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash birinchi navbatda qoramol boqish va etishtirish, shu asosda qishloq aholisining bandlik darajasini ko'tarish va oilalar daromadini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanish.

Respublika xalq xo'jaligining barcha sohalarida shu jumladan, qishloq xo'jaligi va uning ajralmas qismi hisoblangan chorvachilikda o'tkazilayotgan islohatlar o'zini ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Bunga misol qilib chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida etishtirilayotganligini keltirish mumkin. Binobarin yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari ilmiy va ommaviy tavsiyalar bilan ta'minlash, ularni rentabillik

ho'jaliklariga aylantirish sohani istiqbolini belgilaydi. Chunki keyingi besh yilda chiqarilgan farmon va qarorlar aynan shu maqsadlarga qaratilgan.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-apreldagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni yanada kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chorva tadbirlari to'g'risida" gi PQ-842- qarori chorvachilikni bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirish borasida katta imkoniyat yaratdi.

Sohaga oid e'lon qilingan barcha farmon va qarorlar respublikamizda xo'jalik toifasidan qat'iy nazar chorvachilik bilan shug'ullanuvchilarning daromadini oshirish va ichki bozorni etarli miqdorda sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishni ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek chorvador uchun qulay shart sharoitlar yaratib, ularga qo'yidagi imkoniyat va imtiyozlarni berdi.

-qonunchilikda shaxsiy yordamchi va fermer xo'jaliklarda qoramol parvarishlash bilan shug'ullanadigan shaxslar ish bilan band axoli toifasiga kirishi, ularga mexnat daftarchasi berishni va ish staji hisobga olishi, nafaqa yoshiga etganda nafaqa olishi xuquqiga ega bo'lish;

-chorvachilikka ixtisoslashgan fermer va boshqa xo'jaliklar hamda parrandachilik korxonalariga ajratilgan sug'oriladigan erlar faqat em hashak ekinlari uchun paxta ekishda foydalanmaslik;

-omixta em, shrot, shuluxa, kepak va boshqa ozuqa turlari xarid qilish mumkin bo'lgan oziqa sotish bo'yicha yagona ixtisoslashgan shaxobchalarni tashkil etish;

-zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish tuzilishini tanada yaxshilash, veterinariya laboratoriyalari va veterinariya punktlari zamonaviy uskunalar va inventarlar bilan jihozlash, ularni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash.

Joriy yilning mamlakatimizda "Keksalarni e'zozlash yili" deb nomlanganligi halqimiz irodasi, yurtdoshlarimiz qalbidagi tuyg'ularning to'liq ifodasi bo'ldi. Yurtdoshimiz Konstitutsiyaning yigirma ikki yiligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, "Bugun turli sohalarda erishayotgan yutuqlarimizda ota-onalarimiz, mo'tabar qariyalarimizning unitilmas va ulkan

xizmati borligini, biz ular oldida umrbod qarzdor ekanimizni unutmasligimiz, qo‘limizdan kelganicha ularning og‘irini engil, umrini uzoq qilishni o‘zimizning insoniy burchimiz, deb bilishimiz lozim”.

Ayni paytda O‘zbekistonda 60 yoshgan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ziyod ekanligi, ayni kunda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar 100 yoshdan oshgan tabarruk qariyalar yashayotganligi yurtimizda umrboqiylik darajasi oshib borayotganligidan dalolat beradi. Turmushimiz farovonlashib borsa, umrboqiylik darajasi ham shuncha oshadi.

“Keksalarni e‘zozlash yili” Davlat dasturi 2015 yil 18 fevralda qabul qilindi, u oltita bo‘lim, 66 ta bandni o‘z ichiga oladi. Dastur keksa avlodga e‘tibor va g‘amho‘rlikning chinakam namunasi bo‘lgan tom ma‘nodagi tarixiy hujjatdir. Unda halqimiga xos azaliy qadriyat – keksalarga bo‘lgan hurmat va ehtiromning barcha jihatlari, qariyalarning kundalik hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan barcha holatlar o‘z ifodasini topgan, birorta masala e‘tibordan chetda qolmagan.

Davlat dasturida keksalarga g‘amxo‘rlik va e‘tiborni kuchaytirishi; ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish; pensiya ta‘minoti va ijtimoiy qo‘llab – quvvatlash, davlat hizmatlari ko‘rsatishning eng qo‘lay tizimini shakllantirish; uchun va mehnat faxriylarini moddiy va ma‘naviy qo‘llab – quvvatlash; tibbiy va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish darajasi va sifatini oshirish; mamlakatimizning mudafaa qudratini mustahkamlash; ijtimoiy – iqtisodiy va intellektual salohiyotini kuchaytirish; tinchlik, totuvlik va barqarorlik muhitini mustahkamlashga bebaho hissa qo‘shgan, barkamol avlodni tarbiyalashda faol ishtirok etib kelayotgan keksa avlod vakillariga alog‘ida ehtirom ko‘rsatish, ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish ko‘zda tutilgan. Har bir keksaga e‘tiborni qaratish, ularning turmushi va dam olishini tashkil etish sifatini oshirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun sharoit yaratish, mahallalarda keksalar va nogironlarga doimiy e‘tiborni kuchaytirishga qaratilgan mahsus komissiyalar tuzish tadbirlari belgilangan.

“Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturida belgilangan chora – tadbirlarning amalga oshirishi ozod va obod Vatan, erkin va foravon hayot barpo etish yo‘lida qo‘yilgan muhim qadam sifatida tarixga kirishi shubhasiz.

### **1.1. Mavzuning dolzarbligi**

Men malakaviy bitiruv ishimni bajarishda yangi tetratsiklinli preparatlar farmakologiyasini o‘rganish uchun antibiotiklarni tetratsiklinlar guruxi to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plashni ma’qul deb topdim va ushbu mavzuni yoritishda tetratsiklin guruxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bitiruv malakaviy ishimning mavzusiga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, tetratsiklinlar guruxi veterinariya amaliyotida antibiotiklar ichida eng ko‘p qo‘llaniladigan dori moddalari hisoblanadi. Hozir mamlaktimizning veterinariya amaliyotida tetratsiklin guruxiga kiruvchi preparatlarning deyarli barchasi chet mamlakatlardan keltirilmoqda. CHetdan keltiriladigan tetratsiklin guruxiga mansub preparatlar tarkibi asosan oksitetratsiklin saqlovchi dori moddalari hisoblanadi. Bu preparatlar mamlakatimizda yaqin paytdan beri qo‘llanilayotganligi sababli uning farmakologiyasi bizning mamlakatimiz sharoitida to‘lig‘icha o‘rganilmagan.

Sokolov V.D (2010) bo‘yicha tetratsiklin preparatlari Astinomycetales guruxiga kiruvchi mikroorganizmlardan olinib, 4-yadroli gidroaromatik kondensirlangan birikmalardan tashkil topgan. Penitsillinlarga qaraganda ta’sir mexanizmi kengroq, ya’ni ular grammusbat va grammanfiy mikroorganizmlarga ham antimikrob ta’sirini ko‘rsatadi. Boshqa ta’sirlari ham bor: ular kislotaga chidamli bakteriyalarga, rikketsiyalarga va ayrim yirik viruslarga ham bakteriotsid ta’siri bor. Bakteriolitik ta’siri 10 marta bakteriostatik ta’siridan kuchliroqdir.

Ta’sirining asosini mikroblardagi gaz almashinuvi va fosforlanish protsessini buzishdan iborat. Zaxarliligi juda past. Toksik dozasi terapevtik dozasidan 20-40 marta ko‘proq.

Qo‘llanilishi: Hayvonlarning o‘shini va emirishini stimullashdan tashqari qo‘yidagi infeksiyon va ko‘pgina noinfeksiyon kasalliklarda ishlatiladi: dizenteriyada, dispepsiya va boshqa diareya kasalliklarida, salmonellyoz

(paratifda), oshqozon va ichak kasalliklarining boshqa surunkali xillarida, o'pka kasalliklarida, kuydirgi, yomon sifatli shishlarda, teylerioz, brodzot, nekrobatsillyozda, leptospiroz, atrofiyaga uchraydigan rinitda. Bundan tashqari ba'zi preparatlari yosh hayvonlarni tez o'stiradi, semirtiradi, kasalliklarni oldini oladi.

Yuqoridagilardan tashqari tetratsiklin, dibiomitsin va boshqalarning maz (malxam)lari ham chiqarilib ularni ko'pincha ko'z (kon'yuktivit) kasalliklari va boshqa yiringli jaroxat, yaralarda ham qo'llaniladi.

### **Preparatlari:**

1. Tetratsiklin
2. Tetratsiklin gidroxlorid,
3. Oksitetratsiklin, digidrat,
4. Tetratsiklin, terramitsin gidroxlorid,
5. Xlortetratsiklin – biomitsin.
6. Dibiomitsin
7. Limoksin – 100, 200

Hozir mamlaktimizning veterinariya amaliyotida tetratsiklinlar guruxiga kiruvchi preparatlarning deyarli barchasi chet mamlakatlardan keltirilmoqda. Bu preparatlar mamlakatimizda yaqin paytdan beri qo'llanilayotganligi sababli uning farmakologiyasi bizning mamlakatimiz sharoitida to'lig'icha o'rganilmagan.

Hozir O'zbekiston veterinariya amaliyotida tarkibida ta'sir etuvchi modda – oksitetratsiklin saqlovchi yangi tetratsiklin guruhi antibiotiklari keng qo'llanilmoqda. Bu preparatlar mamlakatimizga Gollandiya, Rossiya, Xitoy, Hindiston kabi farmatsevtik sanoati rivojlangan mamlakatlardan keltirilmoqda. Preparatlar O'zbekiston veterinariya registratsiyasidan o'tkazilgan bo'lib veterinariya amaliyotiga qo'llashga ruxsat etilgan. Xozir O'zbekiston veterinariya amaliyotida eng ko'p qo'llanilayotganlari quyidagilar.

Oksitetratsiklin 5%,10%,20%

Razomitsin 20%

Nitoks 20%

O-tetra 10%

Limoksin 100, 200

Adamitsin 10%

Men bitiruv malakaviy ishimni bajarishda yangi tetratsiklinli preparatlardan quyidagilarni o'rganishga xarakat qildim.

**Oksitetratsiklin** – parenteral yo'l bilan qo'llaniladigan suvli eritma. 10, 50, 100 ml hajmli flakonlarda, 5%, 10% yoki 20 % li konsentratsiyali eritma shaklida ishlab chiqiladi.

**Tarkibi:** 1 ml eritmada

Oksitetratsiklin 1 ml yoki 50, 100, 200 mg

**Ta'siri.** Oksitetratsiklin antibiotiklarni tetratsiklin guruxiga mansub bo'lib, ko'plab gramm musbat va gramm manfiy bakteriyalarga bakterioostatik ta'sir etadi, jumladan bardetella, xlamidiylar, kampilobakteriyalar, ichak tayoqchasi, gemoglobinofil bakteriyalar, mikroplazma, pasterella, rikketsiyalar, salmonella, stafilokokklar, streptokokklar. Preparatni ta'sir mexanizmi bakteriya xo'jayrasida oqsil sintezini buzishdan iborat. Preparat organizmdan siydik, o't suyuqligi va sut bilan ajralib chiqadi.

**Qo'llash:** Artrit, buzoqlar, qoramol, cho'chqa, qo'y va echkilarni nafas yo'llari va oshqozon – ichak infeksiyalarida; oksitetratsiklinga mikroorganizmlarni sezuvchanligiga yuqori bo'lgan barcha infeksiyalarda jumladan, bardetella, xlamidiylar, kampilobakteriyalar, ichak tayoqchasi, gemoglobinofil bakteriyalar, mikroplazma, pasterella, rikketsiyalar, salmonella, stafilokokklar, streptokokklar.

**Qo'llash ta'qiqlanadi.** Hayvonni tetratsiklinga individual sezuvchanlik bo'lsa, jigar va buyrak funksiyalari buzilgan bo'lsa, penitsillin bilan birga qo'llash ta'qiqlanadi.

**Noxush ta'siri:** Allergik reaksiya, yosh hayvonlar tishlari oqarishi, in'eksiya qilingandan so'ng kuzatiladigan maxalliy reaksiyalar.

**Doza:** Muskul orasiga qo'llaniladi.

1. Katta hayvonlarga: 1 ml 10-20 kg vazni 3-5 kun
2. YOsh xayvonlarga: 2 ml 10-20 kg vaznga 3-5 kun.

In'eksiya qilinadigan joyga yuboriladigan preparat miqdori qoramolga 20 ml, cho'chqa 10 ml, qo'y-echki 5 ml, hajmdan oshmaslik kerak.

Preparat qo'llanilgan davrda go'sht-12 kungacha, sut-7 kungacha ovqatga ishlatilmaydi.

<http://vet43.ru/catalogue/oxytetracyclini>

**Nitoks-** parenteral yo'l bilan qo'llaniladigan suvli eritma. 50-100 ml hajmli flakonlarda, 20 % li konsentratsiyali eritma shaklida ishlab chiqiladi.

**Tarkibi:** 1 ml eritmada

Oksitetratsiklin digidrat - 200 mg

**Ta'siri.** Preparat uzoq ta'sir xususiyatiga ega bo'lib, ko'plab gramm musbat va gramm manfiy bakteriyalarga bakteriostatik ta'sir etadi, jumladan xlamidiylar, korinebakteriyalar, klostriyalar, ichak tayoqchasi, gemoglobinoofil bakteriyalar, aktinobakteriyalar, mikroplazma, pasterella, rikketsiyalar, spiroxitalar, mikoplazmalar, salmonella, stafilokokklar, streptokokklar. Preparat muskul orqali yuborilganda tez qonga suriladi va 30-50 minutdan keyin to'qimalarda maksimal to'planadi. Antibiotikni terapevtik darajasi to'qimalarda 60-72 soat saqlanadi. Organizmdan siydik va o't suyuqligi orqali, sut beradigan hayvonlarda sut bilan chiqib ketadi.

**Qo'llash:** oksitetratsiklinga mikroorganizmlarni sezuvchanligiga bo'lgan infeksiyalarda: respirator kasalliklardan mastitda, pasterellyozda, to'qyo chirishida, keratokon'yutivitda, sepsisda, yiringli yaralarda, tug'ruqdan keyingi infeksiyalarda, anaplozmozda.

**Qo'llash taqiqlanadi.** Hayvonni tetratsiklinga individual sezuvchanlik bo'lsa, bo'g'ozlikni birinchi oyida, estrogenlar va kortikosteroidlar bilan birga qo'llash ta'qiqlanadi.

**Noxush ta'siri:** Allergik reaksiya, in'eksiya qilingandan so'ng kuzatiladigan maxalliy reaksiyalar.

**Doza:** Muskul orasiga qo'llaniladi.

Hayvonlarga: 1 ml 10 kg tirik vazniga, qayta in'eksiya 72 soatdan so'ng

In'eksiya qilinadigan joyga yuboriladigan preparat miqdori qoramolga 20 ml, cho'chqa 10 ml, qo'y-echki 5 ml, hajmdan oshmaslik kerak.

Preparat qo'llanilgan davrda go'sht-12 kungacha, sut-ovqatga ishlatilmaydi.  
<http://vet43.ru/catalogue/nitox>

**Limoksin** – Limoxin parenteral yo'l bilan qo'llaniladigan suvli eritma. 100 ml hajmli flakonlarda, 10 yoki 20 % li konsentratsiyali eritma shaklida ishlab chiqiladi.

**Tarkibi:** 1 ml eritmada

Oksitetratsiklin 100 ml yoki 200 mg

Erituvchi - 2 ml

**Ta'siri:** oksitetratsiklin tetratsiklin guruxiga mansub bo'lib, ko'plab grammusbat va gramanfiy bakteriyalarga bakteriostatik ta'sir etadi, jumladan bardetella, xlamidiylar, kampilobakteriyalar, ichak tayoqchasi, gemoglobinoofil bakteriyalar, mikroplazma, pasterella, riketsiyalar, salmonella, stafilokokklar, streptokokklar. Preparatni ta'sir mexanizmi bakteriya xo'jayrasida oqsil sintezini buzishdan iborat. Preparat organizmdan siydik, o't suyuqligi va sut bilan ajralib chiqadi.

**Qo'llash:** Artrit, buzoqlar, qoramol, cho'chqa, qo'y va echkilarni nafas yo'llari va oshqozon – ichak infeksiyalarida agar oksitetratsiklinga mikroorganizmlarni sezuvchanligiga yuqori bo'lsa, jumladan bardetella, xlamidiylar, kampilobakteriyalar, ichak tayoqchasi, gemoglobinoofil bakteriyalar, mikroplazma, pasterella, riketsiyalar, salmonella, stafilokokklar, streptokokklar.

**Qo'llash taqiqlanadi.** Hayvonni tetratsiklinga individual sezuvchanlik bo'lsa, jigar va buyrak funksiyalari buzilgan bo'lsa, penitsillin bilan birga qo'llash ta'qiqlanadi.

**Noxush ta'siri:** Allergik reaksiya, yosh hayvonlar tishlari oqarishi, in'eksiya qilingandan so'ng kuzatiladigan maxalliy reaksiyalar.

**Doza:** Muskul orasiga yoki teri ostiga qo'llaniladi.

1.Katta hayvonlarga: 1 ml 10-20 kg vazni 3-5 kun

2.YOsh xayvonlarga: 2 ml 10-20 kg vaznga 3-5 kun.

In'eksiya qilinadigan joyga yuboriladigan preparat miqdori qoramolga 20 ml, cho'chqa 10 ml, qo'y-echki 5 ml, hajmdan oshmaslik kerak.

Preparat qoʻllanilgan davrda goʻsht-12 kungacha, sut-ovqatga ishlatilmaydi.  
<http://vet43.ru/catalogue/limoksin>

## **2. ADABIYOTLAR SHARHI**

"Antibiotiklar" termini grekcha anti -qarshi va bio - hayot degan ma'noni anglatadi.

Sokolov V.D (2010) ta'kidlashicha antibiotiklar farmakologik modda bulib, hayvonlar organizmida modda almashinuvini kuchaytiradi, tezlashtiradi va hazm qilishni yaxshilaydi. Tirik organizmda ko'pgina tizimlar (sistema)ning va organlarning ish faoliyatini yaxshilaydi. Ularni o'z vaqtida, hayvonlarga to'g'ri diaqnoz qo'yib,qo'llanilsa kasal mollarning tashqi muxitning yomon ta'sirlariga qarshi kurashish qobiliyati (rezistentligi)ni oshiradi, immunitetini mustaxkamlaydi. Ayniqsa, yosh hayvonlar, parrandalar va bo'rdoqiga boqilayotgan , qari hayvonlardan juda ko'p iqtisodiy foyda olish mumkin.

Antibiotiklarni birinchi topilgan yillardan boshlab, ularning ko'yidagi xususiyatlarini o'rganishdan boshlangan:

- A) bakteriostatik - mikroorganizmlarning taraqqiyoti yoki o'sishini susaytirish;
- B) bakteriosid - mikroorganizmlarga o'ldiruvchi ta'siri;
- V) bakteriolitik - mikroorganizmlarnieritib yuborishi ( lizis holatiga olib borishi).

Keyinchalik, barcha fanlarning taraqqiy etishi bilan antibiotiklarniig yuzlab turlari kashf qilina boshladi va ularning xossalari, mikroorganizm va makroorganizmlarga ta'sirlari o'rganila bordi.

### **2.1. Antibiotiklarning tarixi.**

So'z yuritilayotgan terminimiz "Antibiotiklar" 1942 yilda qabul qilingan bo'lsada, unga etib kelganga qadar ko'p va og'ir tekshirish ishlarini boib o'tdi.

Ma'lumki, kishilar yuz yillar davomida mineral, o'simlik va hayvonlar organizmidan, tarkibidan ko'pgina moddalarni tekshirib, topib olib har xil kasalliklarii davolash maqsadida, ularning oldini olish uchun qo'llab, tekshirib ko'rib kelganlar. Lekin, ko'p yillar davomidagi olib borgan ishlari juda oddiy (emperik) xarakterga ega bo'lgan desa bo'ladi, chunki organlarning taraqqiyoti ancha orqada edi.

Faqatgina tabiiy fanlarning taraqqiy etishi natijasi orqali asta- sekinlik bilan yo‘llar ochila boshladi. XIX asrning oxiriga kelib barcha tabiiy fanlar katorida mikrobiologiya, virusologiya va epizootologiya ilmi fanlariga ham tezlab rivojlanish uchun qiyinchiliklar bilan bo‘lsada shart-sharoitlar yaqinlasha boshladi:

Ayniqsa, dorilar bilan davolash 2 yo‘nalishga ajrala boshladi:

1) Farmakoterapiya - yuqumsiz va yuqumli kasalliklarni, teri va boshqa keng tarqalgan jaroxatlarni dorilar yordamida davolash;

2) Ximioterapiya - yuqumsiz va yuqumli, ipvazion va boshqa kasalliklarni chaqiruvchi sababini yo‘q qilish (o‘ldirish) uchun xar xil kimyoviy moddalarni ko‘llab ko‘rish keng ko‘lamda kuchaydi.

Ayniqsa, XIX asr oxiriga kelib, ximiya (kimyo) fani kuchli va tez taraqqiy eta boshladi. Kimyo fanining taraqqiy etishida rus olimlari N.N.Zinin, A.M.Butlerov, D.I.Mendeleev, D.L.Romanovskiy va boshqalarning hissalarini o‘ta kuchli bo‘ldi.

1) Zinin - nitrobenzol tarkibidan - anilinni sintetik usul bilan ajratib olish usulini yaratdi; Keyinchalik sintetik kimyo dunyo bo‘ylab kuchayib ketdi.

2) Zinning shogirdi Butlerov esa organik birikmalarning tuzilishini va ularning ta’siri tuzilishiga bog‘liq ekanligini tasdiqlab berdi. Undan tashqari Butlerov xinini moddasining tuzilishi (struktura)ni kashf etdi. Undan keyin 50 yil o‘tgach, xini dorisining "konkurenti" o‘rin bosari - plazmoxin (plazmosid) aniqlandi. Chunki, unga qadar "bezugak" - milyariya kasalligiga qarshi, uni faqatgina xinini dorisi bilan davolab kelingan edi.

3) XIX asrning yana bir buyuk yangiligi D.I.Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy sistemasidir. Xozirga kelib Mendeleev davriy sistemasidan dorivor moddalar tayyorlab qo‘llamokdalar. Ularning ko‘pchiligi antimikrob- mikrobga qarshi ta’sir ko‘rsatadi. Masalan: margimush, surma, vismut birikmalari va boshqalar.

4) Tabiblar, hakimlar va olimlar 300 yildan ziyodroq davr ichida xininni malyariya (bezugak)ni davolab kelishgan. Lekin, ular xininning organizmning himoyaviy kuchini oshirish orqalimi yoki undagi parazitni o‘ldirish orqali amalga

oshiriladimi bilishmagan. Ushbu savolni rus olimi D.L. Ramonovski o'chib bergan, ya'ni bezgak parazitini xininning o'ldirishi bilan amalga oshirilishini isbotlab bergan edi.

5) Kimyoviy moddalar yordamida mikroblar, viruslar va boshqalarni o'ldirish uchun nemis olimi Paul Erlix Salvarsanni (606 tajribasida), novarsenolni-neosalevarsanni (914 tajribasida) sintez qilgan va sifilis (blednaya spiraxeta)ni davolay boshlagan. Hozirgi kunda ham P. Erlixni ximioterapiyaning asoschisi deb yuritiladi. Uning sintez qilgan va qo'llagan dorisini "volshebnqe puli - sexrlangan o'q" deb yuritiladi, chunki ular mikroblar yoki boshqa sababchilarni organizmning qanotida bo'lmasin unga o'ldiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Antibiotiklarni olish, tayyorlash va ularni qo'llash uchun intilish 1942 yildan ko'p yillar avval boshlangan.

6) Lui Paster va Juber achitish, bijg'itish prosessiga bog'lab berishga harakat qiladi. Buyuk fransuz olimi Lui Paster tomonidan pasterizatsiya usuli yaratilishi (sut yoki meva sharbatini 100° qizdirish yuli bilan ularni bijg'ish jarayonidan xolos qilish pasterizatsiya deb ataladi) biotexnologiyada mikroorganizmlardan ongli ravishda foydalanishga asos soladi.

7) Qadim zamonlardan oq yuqumli kasalliklarni ko'zga ko'rinmaydigan mayda organizmlar tarqatishi Markaziy Osiyoda ma'lum bo'lgan. Ulug' bobokolonimiz Abu Ali Ibn Sino ba'zi kasalliklar (chechak, vabo, sil) ko'zga ko'rinmas organizmlar orqali paydo bo'lishini e'tirof qiladi, hamda ularga qarshi spirtli suyuqlik (vino)lar va roza guli suyuqligini qo'llay boshlaydi. Mog'orli zamburug' kukunini yiringli yaralarni davolashda ko'llagan.

8) Ma'lumki, rus olimi I.I. Mechnikov 1893 yilda fagositoz hodisasini kashf etgan bo'lsa, 1894 yili Parijda Paster institutida ishlab, saprofitlarning (prostokvasha) antimikrob ta'siri borligini olishga muvaffaq bo'ladi. 1887 yili u kishi Parijga borib 28 yil ishlaydi, Paster vafot qilgach institutga rahbarlik qiladi. 1908 yili fagositoz va immunitetlar bo'yicha olib borgan ilmiy ishlari uchun Nobel mukofoti beriladi.

9) 1871 yili Monassein ko'k mog'or zamburug'i va bakteriyalarning antogonist

ekanligini isbotlab beradi. Keyinchalik ushbu ishlarni arqarorlashtirish uchun "Penisillin" instituti tashkil qilindi, tezda ekmolin va boshqa antibiotiklar tayyorlanaverdi. Streptomisin kashf etildi, ularni mikroorganizm (zamburug' va boshqalarni) maxsus maydalangan g'alladan oziqa tayyorlab o'stira boshlandi, ayrim mikroelementlar qo'shildi. Azizova S.S (2000)

Ammo suyuq oziqalarda o'stirilgan va ulardan tayyorlangan antibiotiklar juda tez buziladi, ishlatish vaqti juda qisqa edi. Keyinchalik ulardan kristall, tozalangan, farmakopeya talablariga javob beraoladiganlarini ampula, flakonlarga solib, sovuq va boshqa tao'qi muhitga chidamlilari chiqarila boshlandi. Maxsus fermentyorlar yaratildi.

## **2.2. Antibiotiklarning xalq xo'jaligidagi dolzarbligi.**

Antibiotiklarning medisina amaliyotida keng qo'llanilishi va ularning ko'pgina yukumli kasalliklarda ishlatilishi haqidagi ma'lumotlar barcha qishilarga ayonligi ma'lumdir.

Andreeva N.L. (2004) yozishicha hozirgi davrga kelib ularni qo'llash, kasal hayvonlarni davolash va ularning oldini olishda antibiotiklar keng-ko'lamda ishlatilib kelinmoqda. Ushbu jarayon o'simlik (agronomiya)shunoslikda va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ham qo'llanilib kelinmoqda.

Qisqacha antibiotiklardan foydalanilib kelayotgan tarmoqlarni aytib o'tamiz:

1. O'simlikshunoslikda.
2. CHorvachilikda.
3. Veterinariyada.
4. Oziq-ovqat sanoatida.
5. Konserva sanoatida.
6. Sut va sut mahsulotlarini saqlashda.

Violin B.V.(2001) yozishicha, oxirgi 60 yil davomida antibiotiklarni o'simliklarda fitopatogen mikroorganizmlar (viruslar, bakteriyalar, zamburug'lar, oddiy mikroblar va boshqa) chaqiruvchi kasalliklarning oldini olish va davolashda ko'llanilib kelinmoqda. Fitopatogan organizmlar tuproqda, o'simliklarning barcha qismlarida, urug'i, issiqxona va boshqa joylarda ham uchraydi.

Videnin V.N. (2004) yozishicha antibiotiklarni tez buziladigan oziq-ovqatlarni saqlash maqsadida ham keng qo'llanilib kelinmoqda. SHu maqsadda xar xil fizik va kimyoviy metodlar ham qo'llaniladi. Ayniqsa 1943 yildan boshlab konserva sanoatida qo'llaniliyu kelinmokda. Antibiotiklarni go'sht, baliq va parrandalarda mikroblarni yo'q qilish maqsadida qo'llaniladi, chunki ular ushbu mahsulotlarda juda tez ko'payib ketib, ularni buzilishiga olib keladi. Antibiotiklarni qo'llagandan keyin ularnig buzilishi ancha kech bo'ladi, ovqatni ancha kun undan keyin saqlash mumkin. Dorilarni qo'llash ayniqsa baliqni uzoqroq saqlao' uchun ko'roq kerak bo'ladi. Sut va sut mahsulotlarining buzilishidan saqlash uchun ham keng qo'llanilib kelinmoqda.

Antibiotiklar paydo bo'lgandan boshlaboq chorvadorlar ham ishlata boshladi. Ayniqsa veterinarlar chorva mollarining ko'pgina kasalliklarida sinab ko'rib, ancha yaxshi natijalar ola boshladi. Masalan: bug'ularda tuyuq kasaligida, qora mollarning mastit, kuydirgi, pnevmoniya, cho'chqalardagi roja va boshqa kasalliklarida snab ko'rila boshladi. CHorvachilikda antibiotiklardan avvalambor grizeoviridin qoramollarda mastit va jo'jalarda bronxitda yaxshi effektlar kuzatiladi. Metilisinni brusellyozga qarshi qo'llay boshlashdi. Undan tashqari ularni parranda va asalarilar kasalliklarida sinabko'rila boshladi. Masalan, kurka bolalari sinusitida streptomisin, xloramdifenikol, xlortetrasiklin; jo'jalarning laringotraxeitida magnamisin ishlatila boshlandi. Asalarilar oilasi Amerika yoki Evropacha yiringlanishida- oksitetrasiklin, pozema (ich o'tma)da esa fugamallin qo'llanila boshlandi.

Subbotin V.M (2000) yozishicha chorvachilikda antibiotik dorilarni ko'pgina q\ x hayvonlari va parrandalarning semirtirishni tezlashtirish xossalari borligi aniqlandi. YAna bir axamiyati antibiotiklar kichik dozalarda qo'llanganda yangi tug'ilgan va yoz hayvonlarda chiqim (o'lim, majburiy so'yilish) kam bo'lishi isbotlandi. Undan tashqari preparatlar optimal doza va kombinasiyalarda yosh hayvonlarning tez o'sishi va kombinasiyalarda yosh hayvonlarning tez o'sishi va taraqqiyotini ancha tezlashtiradi. Bu faktor esa oziqaning 5-10% kam xarajat qilishga olib keladi. Ushbu hayvonlar kasalliklarga, ayniqsa miroorganizmlar

chaqiruvchilariga kam chalinadi. Ularning eng qulay tomoni va iqtisodiy samaradorlygi oziqa bilan berishdir, oziqaga qo'shib berilganda hayvon organizmiga hech qanaqa ziyoni bo'lmaydi va mahsulot sifatini buzmaydi.

Bizning Respublikamizda ham burdoqiga boqish punktlarida, yangi tug'ilgan buzoqlar, qorako'l va boshqa qo'ylar qo'zilari, cho'chqa bolalari va inkubasiyadan keltirilgan jo'jalarni o'stirish va boqishda ko'p qo'llanilib kelinmokda.

Hayvonlar, ayniqsa yangi tug'ilgan bolalaridagi mikroorganizmlar chaqiradigan kasalliklarning oldini olish, davolash va o'sishini tezlashtirish uchun ko'p yillar oldin Respublikamizda oziqaviy antibiotiklar ilmiy tekshirish institutlarida, biokombinatlarda va spirt ishlab chiqaruvchi (barda) zavodlarda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan edi va hozir ham ularning ko'pchiligi ushbu ish bilan shug'ullanmoqda.

Eng kichik doza va konsentrsiyadagi antibiotiklarning ayrimlarini chorvachilikda qo'llash bilan Respublikaamiz va boshqa mamlakatlarda ilmiy tekshirish ishlari ko'p olib borilgan va davom ettirilmokda, lekin ushbu ishlar oxirigacha tugallanmagan. Stimullovchi ta'siri oxirigacha ettirilmagan ekan, uning sababi nimada. Ushbu masalani aniqroq echish uchun biz adabiyotlarda ko'rsatilgan va o'zimizning ham fikrimiz bo'yicha 2-faktorga bog'liq deb bilamiz:

Antibiotiklarning ichak mikroflorasiga ta'siri;

Ularning hayvon organizmiga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri haqida. Biz ushbu muammolarning eng asosiylarini sanab va yozib o'tmoqchimiz.

### **2.3. Antibiotiklarni to'g'ri (ratsional) qo'llash tartiblari va asoratlari.**

Tatarchuk O.P. (2004) ta'kidlashicha yuqumli kasalliklarni davolashda antibiotiklar yoki boshqa ximioterapevtik dori vositalaridan qo'llashdan avval kasal hayvonlarning o'zining ximiyaviy qobiliyatiga qarash ham kerak. Kasallarning bir qismi o'zlari ham yaxshi sharotda saqlansa, yaxshi boqilsa o'zlari ham tuzalib ketishi ham mumkin. Chunki hayvonlar kasallikning . xiliga qarab har yili vaksinasiya emlash ( 6 oy 1 yilda) ishlarini o'z vaqtida olib borish zarur ularda immunitet paydo bo'ladi.

Lekin, antibiotiklarni va boshqa ximioterapevtik dori moddalarini qo'llab, mikroorganizmlarda qarshi bakteriostatik va antitoksik ta'sir qilish har bir vrach-hakimning birinchi vazifasidir.

Odatda o'tkir yuqumli kasalliklarni davolashda bitta antibiotikni 5-7 kun qo'llash zarur, agar kasal hayvon sog'ayib ketmasa, boshqa antibiotik tanlash zarur.

Agar kasallik chaqirgan mikrobnin nrecha antibiotikka sezuvchan bo'lsa, uning qaysisini buyurish yoki qo'llash vrachning ixtiyorida bo'ladi. Mikroblar bir shtammga kiruvchi bo'lsa ham har xil sezuvchailikka ega bo'lishi mumkin.

Bakteriyalarning aloxida antibiotiklarga sezuvchanligi va chidamliligi odatda bakteriyalar vet. laboratoriyalarda aniqlab beriladi. Usullari ko'p bo'lib, eng keng qo'llaniladigan "agardagi diffuziya yo'lidir". Mikrobnin Petri kosachasiga ekilib, ma'lum antibiotik singdirilgan qog'oz-diski qo'yiladi va 1 sutkadan keyin natija aniq bo'ladi. Agar kasallik chaqiradigan mikrobnin sezuvchan bo'lsa qog'oz diskni aylanasida sutka davomida termostatda oq zona hosil bo'ladi. Agar u chidamli, antibiotik ta'sir qilmaydigan bo'lsa oq-yorug' liniya hosil bo'lmaydi. Ushbu engilgina tajriba asosida vrach-bakteriolog amaliyotichi vetvrachga qaysi antibiotigi xo'jaligida, fermasmida bor va qaysini qo'llash mumkinligini tezda aniqlab berishi mumkin.

Diagnoz o'z vaqtida qo'yilgan va to'g'ri medikamentoz davolash boshlangan infeksiyani tezda yo'qotish mumkin. Lekin kasallik chaqiruvchi mikroblar ham o'zgarib turishi mumkin. Masalan, keyingi paytlarda pnevmoniyani pnevmokokkilargina emas, hatgo stafilakokki, ko'kimtir streptokki yoki hatto achitqilar (drojji) ham chaqirishi mumkin. Ushbu kasallikni asosan penisillin ta'sir ko'rsatmaydi.

Dozasini aniqlash hamda belgilangan antibiotikni ko'taraolmasligini ham avvaldan bilib olish kerak. Agar hayvon buyurilgan antibiotikni ko'taraolmasa, albatta va tezda boshqasi bilan almashtirish lozim. SHunday qilib, antibiotiklardan mikrobnin va ulvri ishlab chiqaradigan toksinlarni yo'q qilish uchun foydalanilganda ko'yidagilarga rioya qilish shart.

- 1) Kasallikni chaqirgan mikrobg qarab antibiotikni to'g'ri tanlash lozim va ularning qaysi antibiotikka chidamliligini aniq bilish kerak; .
- 2) Hayvonning turiga, yoshiga va vazniga qarab dozasini aniq tailash, davolovchi ta'siri tezroq va ziyonli ta'siri kam yoki bo'lmasligi lozim;
- 3) O'tkir infeksiyon kasallikni yo'q qilish uchun har bir antibiotikni 5-7 kun qo'llangandan keyin foyda bo'lmasa uni boshkasi bilan almashtirish lozim;
- 4) Antibiotikni uzoq qo'llaganda hayvonga ziyonli negativ ta'sir paydo bo'lib, unga chidamli mikrobnng xili paydo bo'lishi mumkin;
- 5) Hayvonda qo'llanilayotgan antibiotikka nisbatan ziyonli ta'sirlari paydo bo'la boshlasa ( t<sup>o</sup> - ning yuqoriligi, terilardagi qichish, qizarish) un bilan bo'qa preparatni almashtirish lozim.

Antibiotiklar kashf qilinib, keng qo'llanilayotgandan keyingina medisinada: pnevmoniya, peritonit, sepsis, ostemielit kasalliklari ham bir necha bor kamaydi: YUqumli kasalliklar qorin tifi, dizenteriya, pnevmoniya, kolienterit, sarlatina kechishi, davolash bir necha bor engillashadi. Oxirgi o'n yilliklarda o'smalarni davolash uchun ham qo'llanilmoqda. Ammo, antibiotiklar mayda viruslarga: kishilardagi gripp, qizilcha, ospa, quturish, polimielitlar va boshqalarga ta'sir ko'rsatmaydi.

Hozirgi paytlarga kelib, olimlar ushbu viruslarga ta'sir ko'rsatuvchi xillarini topish uchun ilmiy-tekshirish ishlarini olib borishmoqdalar va ayrim. muvafaqqiyatlarga ham erishganlar. Oxirgi yillari antibiotikka chidamli va o'rganib qolish xollari mavjud degan gaplar chorvadorlar va mutaxassislar o'rtasida ham uchramoqda. Mikroblar agar ularga o'rgshanib qolsa uni davolab bo'lmaydi, qiyin bo'ladi. Agar mikrobn bir xil antibiotikka o'rganib qolsa, analogik preparat bilan almashtirish foyda bo'lmaydi. Masalan: mikrobn agar tetrasiklinga chidamli bo'lib qolgan bo'lsa uni xlortetrasiklin, oksitetrasiklin va boshqa ushbu guruxlardagi dorilar bilan almashtirish katta xato bo'ladi.

Antibiotiklar foydali ta'siri bilan bir qatorda kam prosentda bo'lsada ayrim sharoitlarda ziyonli ta'sirlari ham uchrab turadi. Ziyonli yoki negativ (pobochnoe) ta'siri ko'proq allergiya holatida bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar asosan

ularning zaxarligiga va hayvonning sezuvchanligiga ko'proq bo'ladi. Ularning ushbu ta'sirlari . o'ziga xos bo'ladi: Masalan:

1) Streptomisin katta dozalarda eshitish va muvozanat organidari (vestibulyar apparati) funksiyalarini buzadi. Streptomisidan kar bo'lib qolish mumkin.

2) Levomisetin, sintomisin-qon iglab chiqarish organlari funksiyalarni pasaytiradi.

3) Tetrasiklinlar - ichak epitelial xujayralarini yallig'laydi va hazm qilish buziladi.

Allergik reaksiya berishi ham o'ziga xos kechadi. Ular dorining dozasi yoki xiliga, hamda organizmning sezuvchanligiga xos xoli bo'ladi. Har xolda vrachning ushbu guruxdagi dorilarni to'g'ri qo'llash qoidalarini buzishga ham bog'liq.

Ayrim olimlar ushbu xolatni sensibilizasiya bilan ham qo'shib olib boradi. Ayrim kishilar va hayvonlarda sensibilizasiya ya'ni individual holda sezuvchanligi antibiotiklarning kichik dozalariga ham allergiya berishi mumkin. Allergiya tez, o'tkir kechib- anafilaktik shokka olib kelishi mumkin.

Ayrim xollarda terida qichish, qizarish, haroratning ko'tarilishidan tashqari • bo'g'imlarda og'riq, teri ostiga qon qo'yilishi, limfa tugunlarining kattarib ketishi ham mumkin.

"Supperinfeksiya" - kadan-kam uchraydigan patologik holat bo'lib, birinchi tushgan infeksiya chaqiradigan mikroob qirilib, uni ikkinchi boshqa mikroob davom ettiradi, u birinchi qo'llagan antibiotikka chidamli bo'ladi, kasaldik yanada kuchliroq' surunkali xiliga aylanadi. Davolash uchun yangi antibiotik yoki boshqa ximioterapevtik modda qo'llashga to'g'ri keladi, hamda maxsus davolash ishlarini olibborishga to'g'ri keladi. YAna bir antibiotiklarni qo'llashda ro'y beradigan maxsus asorat- kandidoz, kandidomikozdir: Kasallik chaqiruvchi - achitqi zamburug'i (drojji) "kandida" hisoblanadi.

Agarda antibiotikni juda katta dozada va uzoq vaqt qo'llaganda ushbu hodotxa so'liqishi mumkin: Hayvonning ogiz, tamoq, qizil o'ngach, oshqozon- ichak, bronxlar, o'pka va boshqa shilimshiq pardalardagi epiteliy to'qimasi zaralanadi,

yalliglanadi va funksiya buziladi. Uning o'tkazuvchanligi kuchayib ketadi, hayvonning tashki muxitga chidamliligi juda pasayib ketadi. Antibiotiklar bilan qaytarib davolab bo'lmaydi, ularni qo'llasa ham ta'sir qilmaydi, qayta kuchayaveradi. SHuning uchun gezda antibiotikni qo'llashni to'xtatish lozim, kasal hayvonlarga maxsus xona ajratish. boqishni yaxshilash kerak bo'ladi. Umumiy stimulyatorlar, vitaminlar ko'llash maksadga muvofiq bo'ladi.

Keyingi vaqtlarda kandidozga, kandidomikozga uchragan hayvonlarga zamburuglarga qarshi ishlatiladigan antibiotiklar qo'llash mumkinligi aniqlandi. Nistatin, levorin va grizofulvinlardan foydalanib, yaxshi effektlar olindi. Oxirgi paytlarda antibiotiklar bilan konkurent bo'la oladigan dori vositalariga qiziqish uygonmoqda. Masalan: Afg'oniston urushida qatnashib jaroxat olgan kishi Sankt Peterburg Harbiy medisina akademiyasida davolana boshlaydi. Oyoqlarida kon aylanishi buziladi, ko'p vaqt antibiotiklar bilan davolaydi. Lekin og'rik kolmaydi, qon aylanishi tiklaymaydi. Medisina xodimlari Sankt Peterburgdagi toza, eng yuqori biopreparatlari chiqaradigan "Olifen" dorisi yordamida davolaydi, oyoqlardagi qon aylanishi tuzaladi, og'riq qoladi va butunlay sog'ayib ketadi va birnecha kishi ushbu kasalxonada davolanib chiqadi. Antibiotiklarni uzoq qo'llaganda bo'ladigan allergik reaksiya bo'lmaydi va boshka kasalxonalarda ham allergiya uchramaydi.

Kasalxonalarning pulmoiologik bo'limlarida bronxit, bronxopnevmoniya, pnevmoniya kasalliklarini ham "olifen" yordamida davolaydi. Ushbu haqida 2 marta 12.09. 1988 y. Va fevral 1998 yil "Izvestiya" gazetasida "Vmesto antibiotikov -olifen" sarlavhada ezib chiqishdi.

Antibiotiklarning yangi, kamchiligi kam xillarini aniqlash, boshka ximioterapevtik moddalarni izlash doimo, barcha taraqqiy etgan, taraqqiy etayotgan mamlakatlarda, mustaqillikka endi erishgan mamlakatlarda ham davom etmokda.

Samarqand qishlok xo'jaligi institutida ham aptibiotiklarni kasalliklarning oldini orlish, davolash maqsadida ko'pgina olimlar ish olib borishmokda. Vaksinalangandan - emlangandan keyin immunitetning hosil bo'lishidagi ta'sirini

ko'pgina olimlar ish olib borishdi: A.M.Axmedov, R.X.Xaitov, N.G.Bochkarev, H.B.Haydarov, A.S.Lebedov, A.D.Dushanov, M.A.Abdullaev, F.X.Xolmuxammedov va boshqalar. Ular vaktsina, vitaminlar, antibiotiklar, makro va mikroelementlarni barcha qo'llagandagi ta'sirini 1960 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, o'rgana boshlashgan edi va effekti yaxshi bo'lgan tomoilari amaliyotga (ishlab chiqarishga) ham kiritila boshlashgan edi. Ammo oxirgi o'n yillikda ilmiy shplarga kam e'tibor berilmoqda.

Nima uchun antibiotiklarga shunchalik e'tibor berilgan edi va davom etmokda?

Takroriy bo'lsada ayrimlarining ustida to'xtalib o'tmoqchimiz:

1. Ko'pchilik antibiotik moddalar- almashtirib bo'lmaydigan dori vositalaridir. Ularni ko'pgina infeksiya (yuqumli) kasalliklarni davolash uchun qo'llaniladi. Antibiotiklar ixtiro qilingan cha ularni davolab bo'lmaydigan kasallik deb hisoblanar edi. Masalan, medisinada ham davolash uchun dori bo'lmagan davolash yo'q deyilgan kasalliklar davolanmokda: vabo, ofat. bryushnoy tif, pnevmoniya, ko'pgina septik prosesslar brusellyoz, tuberkullyoz va boshqa og'ir yuqumli kasalliklar davolanmoqda.

2. Qishloq xo'jaligida ularni hayvonlarni, parrandalarni, asalarilarni davolashda, o'simliklarning kasalliklarini profilaktika qilishda va davolashda ishlatilmoqda. Ayrim antibiotiklar hayvonlarning va parrandalarning har xil mahsuldoorligini stimulyasiya qilishda ko'p qo'llanilib kelinmoqda.

3. Antibiotiklarni ko'p va uzoq muddatda qaysi sohada bo'lmasin qo'llaganda, ularga nisbatan chidamli-rezistent mikroorganizmlar hayvon organizmida ko'p paydo bo'ladi. Chidamli mikroblarni o'ldirish-yo'q qilish uchun antibiotiklarni almashtirish, yangi ularga o'rganib qolish bo'lmaydigan, kam o'rgshanadigan preparatning yanggi xillarini topish, yaratish lozim bo'ladi.

4. Antibiotiklarning ma'lum bir qismi oziq-ovqat va konserva sanoatida oziqalarini buzmay saqlash (baliq mahsulotlari, go'sht, pishloq, poliz mahsulotlari, mevalarini) maqsadida qo'llanilmoqda.

5. Qo'llanilib kelayotgan antibiotiklarning ma'lum bir qismining kimyoviy tuzilishi, biologik xossalari oxirigacha qrganilmagan. Ularni aniq tekshirib chiqish lozim. Sintetik, yarim sintetik dori vositalarini ko'proq, arzonroqlarini izlab topish lozim.

6. Qo'llanilayotgan antibiotiklarning makroorganizmlardagi metabolizmining qaysi tomonlariga ta'sirin aniqlash, chuqurroq o'rganib chiqish lozim, chunki ular o'zlariga xos yo'nalishda makro-va mikroorganizmga ta'sir qiladi: DNK, RNK, ribosoma . polimeraz va boshqa.

7. Antibiotiklarning hosil bo'lishi yo'llaridagi o'zgarishlar, har xil moddalarning hosil bo'lishi, sintezlanishini bilib olish kerak. Umuman barcha joyda metabolizmining o'zgarishini o'rganish talab qilinadi.

Ushbu usullarni o'rganishda: mikrobiologlar, mikologlar, bioximiklar, ximik, genetik, sitologlar, farmasevtlar, vrachlar, texnolog va boshqa mutaxassislar qatnashmoqda. Xuddi shunday kompleks va ko'p tarmoqli tekshirishlar bo'lmasa masalalarni tezda ochib bo'lmaydi.

Medisina amaliyotda ham, veterinariya va chorvachilikda ham antibiotiklarning bir o'zini emas, balkim sinergist moddalar bilan birga qo'llaganda kuchliroq va uzoqroq ta'siri bo'lishi, hamda effektining natijasi yaxshiroq bo'lishi ko'pdan beri ma'lum. SHuning uchun ularni ko'pincha o'ziga mos keladigan va bir-birining ta'sirini kuchaytiradigan dori vositalari bilan birga-kombinasiya qilib ko'llagani ma'qul. Ko'pincha bir-biriga mos keladigan ximioterapevtik moddalar bilan birgalikda qo'llashni ma'qul ko'rishadi. Keyingi davrga kelib ko'pgina boshqa dori vositalari. farmakologik stimulyatorlar va boshqa moddalar bilan qo'shib (bir vaqtda ) yuboriladi:

1. Sulfanamidli;
2. Nitrofuranelar;
3. Vitaminlar;

4. Qon o‘rinbosarlari;
5. Globulinlar;
6. Giperimmunlashtirilgan qon zardobi.
7. YUrak glikozidlari va boshqa yurakning ishini kuchaytiradigan dorivor moddalar.
8. PABK
9. Oqsil moddalari bor preparatlar ushbu dorilarni to‘g‘ri qo‘llanilsa ta‘siri 1,5-2 marta kuchliroq bo‘ladi.

Antibiotiklar M.N.S. , oshqozon osti bezi, jigar funksiyalari normallasadi, hazm qilish organlari, bachadon matorikasi va sekresiyasi yaxshilanadi.

Tetrasiklin, penisillin va streptomisinlarning ta‘siri 7-9 sutka davom etsa nistatin va levomisetin ta‘siri 6-15 soatda tamom bo‘ladi. Qolgan guruxdagi antibiotiklar ta‘siri ham har xil muddatgacha ta‘sir ko‘rsatadi. SHuning har bir preparatning va guruxning buyurilishini yaxshi bilish, instruksiyadagi dozalari, qancha vaqt qo‘llash kerakligi bilan puxta tanishgandan keyin ishlatish maqadga muvofiqdir.

Antibiotiklarni organizmga har xil dori shaklda, har xil usullar bilan yuborilgandan keyin ular organizmga har xilda so‘riladi, tarqaladi va undan chiqarilib yuboriladi. Agar parenteral usul bilan (in‘eksiya) yuborilsa tezroq shimiladi, ta‘siri tezroq bo‘ladi. Fiziologik barer (to‘siq)lardan to‘lig‘icha o‘tib ketishi mumkin. Ular birinchi soatning o‘zidayoq barcha organ va sistemalarga deyarli teng tarqaladi.

Antibiotiklarning ko‘pchilligi hazm qilish organlaridan tez shimilsa, ayrimlari (streptomisin) umuman unda so‘rilmaydi.

Ularning ko‘p qismi ingichka (70-80%) ichakda, juda kam yo‘g‘on ichakda (5-10%) va oshqozonda (15-20%) so‘riladi.

Ziyonli (pobochnoe-negativ) ta‘sirlari to‘grisida yuqorida batafsil to‘xtab o‘tgan edik.

Antibiohiklarning o‘shishini tezlashtiruvchi ta‘sirlari. Ushbu masala to‘g‘risida ishimizning boshqa ham qisqacha aytib o‘tgan edik. Ayrim antibiotiklar va ayniqsa ularning tozalanmagan holda chiqariluvchilari (no farmakopey) hayvonlar va

parrandalarni semirtiruvchi ta'siridan va uni, semirtirishni, o'sishni tezlashtirishdan, mahsulotlar sifatini yaxshilash xususiyatidan ko'p qo'llaniladi. Uning sababi yoki ta'sir mexanizmi nimadan iborat ?

1. Antibiotiklar hayvonlarning umumiy holatini va markaziy nerv sistemasining funksiyasini kuchaytiradi.
2. Hayvonlarning, ayniqsa kasal hayvonlarning tashqi va ichki muhitga chidamliligini (rezistentligini) oshiradi.
3. Kasal mollarda va bo'rdoqiga boqilayotgan hayvonlarda oziqaning hazm qilishini kuchaytiradi.
4. Ularning bo'g'ozlik davrining kechishini (borishini) yaxshilaydi.
5. Go'sht va boshqa mahsulotlarining sifatini buzmaydi (o'zgartirmaydi).
6. Organizmda qon ishlab chiqaruvchi (gemopoezni) organlarining ishini yaxshilaydi.
7. Ichki organlarning taraqqiyotini oshiradi.
8. Oshqozon-ichak tizimi sekresiyasi va motorikasi yaxshilanadi, natijada ularning ishtaxasi kuchayadi.
9. Hayvonlarni bo'rdoqiga boqish prosessining muddati qisqaradi va oziqaning iqtisodiy foydasi xo'jalikka katta bo'ladi.

Ushbu maqsadda qo'llanilayotgan antibiotiklardan eng effektlisi tetrasiklinlar hisoblanadi. Ularni faqatgina kasallik tarqalib, hayvonlar ayniqsa yangi tug'ilgan yosh mollar nobud bo'la bosho'laganda emas, balkim surunkali yoki boshqa kasalning shakllari bor, o'sishdan qolgan, zaif hayvonlarni va go'sht mahsuldorligini oshirish uchun ham qo'llash har tomonlama foydalidir.

Usish eng ko'p o'stiradiganlar:

1. Xlortetrasiklin
2. Oksitetrasiklin
3. Polufabrikatlar-yarim tayyor preparatlar: Biovitlar, tetravitlar.
4. Nativ-tozalanmagan tetrasiklar: grizin, basitrasin.

Demak, ularning tarkibida (tozalanmagan va yarim tozalangan antibiotiklar faqat kasallik chaqiruvchi mikroorganizmlarni o'ldirish uchungina emas,

hayvonlarga tarkibida bor vitaminlar va boshqa biostimulyatorlar ham foydali ta'sir ko'rsatadi. Ularni ishlab chiqarish (olish) oson, ko'p miqdorda etishtirish mumkin va antibiotiklar oz bo'lgani uchun ularda ich qotish va kolit, proktit kasalliklari deyarli uchramaydi. Iqtisodiy jihatidan (arzon) har tomonlama foydalidir. Ayniqsa, parrandalarning barcha turlarini inkubator stansiyasidan juda yosh paytida olingani uchun effekti katta bo'ladi.

Lekin, hamma hayvonlar ham baravar, bir tekisda o'sishi va semirishi (100%) uchramaydi. Masalan, tirik vaznining oshishi cho'chqalarda 70-90%, qoramolarda (buzoqlarda ham 60-87% mollarda semirishning o'sib borishi amaliyotda tasdiqlangan (isbotlangan).

1. Jo'jalarning tezroq o'stirish uchun - 2 oy.
2. CHo'chqa bolalarini -3 oy.
3. Buzoq va qo'zilarni- 4oy qo'llash lozimligi aniqlangan.

Hayvonlarning 10 kungacha bo'lgan bolalariga antibiotiklar deyarli o'sishini

sezilarli darajada ko'paytirmaydi. Urtacha o'sish qo'yidagicha bo'ladi:

Jo'jalarda-15-22%

CHo'chqa bolalarida - 12-20 %

Buzoqlarda - 8-12 %

Qo'zilar - 6-12 % Ishimizning yuqori qismida aytib o'tgan edikki, antibiotiklarning ko'pchilligi zaxarli bo'lgani uchun amaliyotda qo'llashga kiritilmagan va ishlatilmaydi. SHularni e'tiborga

olib, extiyotdan hayvonlarni o'stirish va boqish uchun qo'llanidiganlarining hayvonlarning mahsulotlarining sifatiga ta'siri, unda saqlanib qolishi har tomonlama o'rganilgan. Oziqa bilan qo'llaniladigan antibiotiklarning ko'pchilligi sekinlik bilan chikib ketadi. Asosiy kismi birinchi 2 sutka, qolganlari 3-4 sutkadan keyin chiqib ketadi. SHuning uchun antibiotiklar qo'llab o'stirilgan hayvonlarni so'yish uchun 6 kun avval, prolongasid (uzoq ta'sir qiluvchi) qilinganlarini ishlatilganda 20 sutka o'tgandan keyin ruxsat beriladi.

SHunday qilib, antibiotiklarni o'sishni stimulyasiya qilish uchun chorvadorlar va vetvrachlar uchun qo'yidagi engilliklar yaratiladi:

1. Oziqaning barcha xillarini iqtisod qilish uchun;
2. Boqish muddatini kamaytirish-qisqartirish;
3. Hayvonlarning chiqimini (o'sishini) va majburiy so'yilishini kamaytirish uchun;
4. Kasal hayvonlarning sonini kamaytirish;
5. Ularning qayta kasallanishini kamaytirish va davolash ishlariga bo'lgan xarajatlarni cheklash uchun.

#### **2.4. Antibiotiklar va ularning sinflari.**

Antibiotiklarning dori vositasi sifatida ishlatilishi hamda chorvachilik va veterinariya amaliyotida qo'llanilishi bo'yicha veterinariya farmakologiyasida eng oxirgi sinflari qo'yidagilar hisoblanadi:

1. Penisillinlar guruxi - ReshsSHNshp zamburug'idan olinganlar, asosan 3 xil bo'ladi: a) ReshsSHsht sguzo^etit  
b) notatum  
v) crustochum
2. Tetrasiqclinlar guruxi – Aktinomitset Actinomycetales mikroorganizmlardan olingan va ushbu guruxga kiradi.
3. Levomisetinlar guruxi - Actinomycetales guruxiga kiruvchi mikroorganizmdan olinadi.
4. Streptomisinlar guruxi - Actinomycetales guruxidagi m.o. olinadi.
5. Tetratsiklinlar guruxi - Actinomycetales guruxidagi m. organizmlardan olinadi.
6. Polienli antibiotiklar guruxi - Actinomycetales mikroorganizmlardan olinadi.
7. Oligasaxaridlar yoki peomisinlar guruxi — Actinomycetales guruxidagi mikroorganizmlardan olinadi.
8. Polipeptidlar va polimiksinlar guruxi - bacillus poymuxa- guruxidagi mikroorganizmlardan olinadi.
9. Xar xil guruxdagi antibiotiklar.

Bu guruxdagilar xar xil guruxga kiruvchi mikroorganizmlardan olingan.

### **Penisillinlar guruxi.**

Penisillin - ko'k mog'or -zamburug'i penicillum lar ishlab chiqaradigan maxsulotidir. Hozirgi vaqtlarda penisillinni 3 xil shtammasidan tayyorlanadi:

penisillum-notatum

Penisillum-crustosum

Penisillum chrysogenium

Ularni o'stirishda 4 tipdagi penisillinlar hosil bo'ladi. Mikroblarni yo'q qilishda, ya'ni infeksiyon kasalliklarni davolashda eng aktivi hisoblanadi va ular benzilpenisillin va fenoksimetilpenisillin nomi bilan yuritiladi.

Penisillinlar molekulasi dipeptitdan tashkil topgan bo'lib, 2 ta aminokislotadan (asosan) : dimetilsistein

asetilserin aminokislotalaridan iborat. Boshqa penisillin turlari benzilpenisillindan farqi, benzil guruxi o'rniga (-  $\text{CH}_2\text{-C}_6\text{H}_5$  -) boshqa radikallardan tashkil topgan bo'ladi.

Penisillin, kislota bo'lib, tez organizmda parchalanib ketadi va qisqa vaqt ta'sir qiladi. Uni to'g'rilash uchun - natriy va kaliy tuzlariga o'tkaziladi.

Prolongirlangan xillari yanada uzoq (longus) va kengroq ta'sir ko'rsatadi, shulardan yuqumli kasalliklarni davolashda ko'proq - novakainli va ekmolin bilan qo'shilgan kompleks preparatlari ishlatiladi.

Hozirga kelib penisillinni yarim sintez yo'li bilan ham olinmoqda, bunda Penisillum chrysogenium shtammi ishlatilmokda. Ushbu yo'llar bilan bisillin, efisillin, oksasillin va boshqalari olinmoqda. Ayrim penisillinlar (fenoksimetilpenisillin) ni oziqa muxitiga radikalini o'zgartirish, keraklisini hosil qilish yo'li bilan ham olipmoqda.

Kukun hamda preparatlari ta'sir qilmaydi, mikrobg qarshi ta'siri deyarli bo'lmaydi, ularni sterillab bo'lmaydi, yuqori temperaturada buziladi.

Penisillinlar zavodda kukun holda flakonlarda chiqariladi va sterillangan (mikrobsizlantirilgan) bo'ladi.

Penisillinlarning antimikrob ta'siri ancha kuchli, ayniqsa grammmusbat mikroblarga (aerob va anaerob) qarshi qo'llaganda effekti juda kuchli bo'ladi. Ko'p yillar uni faqat grammmusbat mikroblar chaqiruvchi infeksiyalarda qo'llab kelishgan edi. Hozirga davrga kelib, ham grammmusbat ham grammmanfiy mikroblar chaqiradigan kasalliklarga qarshi ishlatiladigan preparatlar chiqarilmokda: Ampisillin, ampioks, sefalosporidin, karbenisillin mikrosid va boshqalar.

Tuberkullyoz, brusellyoz, ichak tayoqchalari penisillinga chidamli, ularda penisillin neytrallaydigan - penisillinaza fermenti hosil qiladi.

Penisillinlar mikroblar devorining hosil bo'lishini buzadi. Muskul orasiga va teri ostiga in'eksiya qilingach tez ta'sir qiladi. Og'iz orqali berilganda ingichka so'riladi, yo'g'on ichaklarda esa parchalanib ketadi, parchalanishini saprofit grammmanfiy mikrofloralar hosil qiladigan penisillinaza fermenti amalga oshiradi. Organizmga shimilgach, butun orgap va to'qimalarga tarqaladi, hamda tezda neytrallanadi v.a chiqariladi (siydik va o't orqali). Qo'llanilishi: Biz' yuqorida ham grammmusbat, ham grammmanfiy mikroblarga qarshi ta'sir qiluvchi penisillinlar haqida biroz yozib o'tgan edik. Ular asosan: streptokokklar, diplokokklar, stafilokokklar, spiroxetalar, pnevmokokklar, sibirskaya yazva (kuydirgi) minengokokklar. tayoqchalariga qarshi ta'sir ko'rsatadi, ularning aerob va anaerob xillarining ham yo'q qiladi. Viruslar, tuberkulyoz (sil), ichak tayoqchalari, brusellyozlar va boshqalari penisillinlarga ancha chidamli.

Amaliyotda qo'yidagi infeksiyon kasalliklarning oldini olish va davolash uchun qo'llaniladi:

Otlarning manqa kasalligida, cho'chqalarning roja, qoramollarning plevropnevmoniyasida, otlarning krupoz pnevmaniyasida, nafas olish organlarining kasalliklarida, leptospiroz kasalligida, nekrobasillyoz, pasterellyozda, qorason, aktinomikoz kasalligida, kuydirgi kasalligida, mastitlarda, yosh mollarning oshqozon ichak kasalliklarida.

YUqumsiz kasalliklarda: jaroxatlarda, tuyoq kasalliklarida, siydik ajratish organlari qasalliklarida, burun, quloq, koʻz va teri kasalliklarida oʻtkir, oʻrta va surunkali yiringli yalligʻlanishlarda, boʻgʻim, pay (artrit, tendenit va boshqa) kasalliklarda qoʻllaniladi. Penisillinlarni yuqori dozada va uzoq qoʻllanganda ziyonli taʼsirlari ham ruyobga chiqishi mumkin. Koʻproq yosh hayvonlar qon ishlab chiqaruvchi organlari, allergik reaksiyalar boʻlishi mumkin. Ziyonli taʼsirlari boʻlganda - dori boʻlishini toʻxtatilib, penisillinaza fermenti yuboriladi.

Penisillinning veterinariya amaliyotida qoʻllaniladigan preparatlari:

1. Benzilpenisillinning natriy tuzi;
2. Benzilpenisillinning kaliy tuzi;

Ularning oʻrtacha dozalari ( xar xil hayvonlar uchun);

Qoramolga - 1 kg ogirlikiga 2000-3000 Otlarga -1 kg ogʻirligiga 2000-3000  
Qoʻylarga - 1 kg ogirlikiga 4000 - 5000. CHoʻchqalarga - 1 kg ogʻirligiga 3000-  
5000. Parrandalarga - 1 kg ogʻirligiga 40 000-50 000.

### ***3.Bitsillin – 1-3-5***

Bu uchalasi ham benzilpenisillinning dibenziletildiamin tuzi hisoblanadi. Ularning qoʻllanilishi va taʼsiri penisillindan farq qilmaydi,- ammo taʼsiri uzoq davom etadi. Muskul orasiga inʼeksiya qilinganda qondagi terapevtik dozasi 3 sutkadan ziyodroq davom etadi.

Bisillin 3 va 5- tarkibi 1 qismdan benzilpenisillinning natriy va kaliy tuzidan iborat.

4.Almetsillin allmecillinum Allilmerkaptometilpenisillin kislotasining kaliyli tuzi.

5.Efisillin.

6. Oksasillin.

7. Fenoksimetilpenisillin

8.Metisillin -

9.Ampisillin -

Penisillinning ham grammmusbat, ham grammmanfii mikroorganizmlarga qarshi taʼsirini yuqorida izoxlab, yozib oʻtgan edik.

### **Tetrasiklin guruxiga kiruvchi preparatlar:**

Tetrasiklin preparatlari Actinomycetales guruxiga kiruvchi mikroorganizmlardan olinib, 4-yadroli gidroaromatik kondensirlangan birikmalardan tashkil topgan. Penisillinlardan ta'sir mexanizmi kengroq, ya'ni ular grammmusbat va grammanfiy mikroorganizmlarga ham antimikrob ta'sirini ko'rsatadi. Boshqa ta'sirlari ham bor: ular kislotaga chidamli bakteriyalarga, rikketsiyalarga va ayrim yirik viruslarga ham bakteriosid ta'siri bor. Bakteriolitik ta'siri 10 marta bakteriostatik ta'siridan kuchlirokdir.

Ta'sirining asosini mikroblardagi gaz almashinuvi va fosforlanish prosesini buzadi. Zaxarliligi juda past. Toksik dozasi terapevtik dozasi 20-40 marta ko'proq.

Qo'llanilishi: Hayvonlarning o'sishini va emirishini stimullashdai tashqari qo'yidagi infeksiyon va ko'pgina noinfeksiyon kasalliklarda ishlatiladi:

Dizenteriya kasalliklarida, dispepsiya va boshqa diareya kasalliklarida, salmonellyoz (paratifda), oshqozon va ichak kasalliklarining boshqa surunkali xillarida, o'pka kasalliklarida, kuydirgida, yomon sifatli shishda, teylerioz, brodzot, qorason nekrobassillozda, leptospiroz, atroficheskiy rinit atrofiyaga uchraydigan rinitda va boshqalarda.

Tetrasiklinlar har xil dori shakllarida tashqi va ichki usullarda keng ko'llaniladi, Ko'z kasalliklarida ko'pgina maz (malxamlari) va linimentlari bor.

Preparatlari:

1. Tetrasiklin
2. Tetrasiklin gidrokslorid,
3. Oksitetrasiklin, digidrat,
4. Tetrasiklin, terramisin gidrokslorid,
5. Xlortetrasiklin - biomisin.
6. Morfosiklin
7. Metasiklin
8. Dioksisiklin gidrokslorid
9. Dibiomisin

A) Xlortetrasiklin gidroxlorid:

Qoramollarga - 0,01- 0,02 / kg.

Qo‘ylarga - 0,007-0,01/kg

Kuram-parranda - 0,02-0,03 / kg

Sutkasiga 2 marta - reg oz . B) Dibiomisin - muskul orasiga:

Qoramollarga - 20.000 - 30.000 ED - TB/kg.

Qo‘ylarga - 30.000-50.000 TB/kg. V) Oksatetrasiklin (terramisin) Barcha hayvonlarga o‘rtacha -5000-10000 TB/kg.

Tetrasiklinlarning arzon, tayyorlanishi oson bo‘lgan tozalanmagan, yarim tozalangan (polufabrikatlar) ham ko‘p miqdorda qo‘llaniladi. Ular yosh hayvonlarni sz o‘stiradi, semirtiradi, kasalning oldini oladi va davolaydi. Tarkibida vitamin va boshqa stimulyatorlar mavjud.

YUqoridagilardan tashqari tetrasiklin, dibiomisin va boshqalarning maz (malxam)lari ham chiqarilib ularni ko‘pincha ko‘z (kon’yuktivit) kasalliklari va boshqa yiringli jaroxat, yaralarda ham qo‘llaniladi.

### **Levomisetinlar guruxiga kiruvchi preparatlar.**

Levomisetinlar guruxiga kiruvchi preparatlar:

1 .Levomisetin -

2.Levomisetin stearat,

3.Levomisetin suksinat

4.Sintamisin -

5.Eusintomisin -

6.Levovinizol -

7.Iruksal -

Mikroblarga qarshi ta’siri keng: brusella, sibirskaya yazva (kuydirgi), salmonella, stafilokokk, diplokokk, pasterella va boshqa mikroorganizmlar chaqiruvchi kasallimklarga, ular ishlab chiqargan toksinlarga qarshi qo‘llaniladi. Reg oz berganda tez so‘riladi, rezorbsiya qilinadi.

Qoʻllanilishi: oshqozon-ichak kasalliklarida, dizenteriyada, leptospirozda, pasterillyozda, pullorozda, koksidioz va boshqa kasalliklarning oldiniolish, davolashda koʻp qoʻllaniladi. Ularni har xil dori shakllarida chiqariladi va ishlatiladi. Levomisetinlarning malxam (maz), linimentlari boʻlib, xirurgik kasalliklarning yiringli (jaroxat, yara, absess, flegmona va boshqa) formalarda qoʻllaniladi.

Levomisetinlar oʻrtacha berilgan dozalarda qoʻllaniladi: Reos – ogʻiz orqali  
Qora mollarga - 0,015-0,02/ kg

Qoʻylarga - 0,02-0,04/ kg

CHOʻchqalarga - 0,03-0,05/kg.

### **Streptomisin guruxiga kiruvchi preparatlar.**

Streptomisin, amerika olimi E.Vaksman tomonidan, 1944 y. Nursimon zamburugʻlardan ishlab chiqarilgan mahsulotdan olingan. U antibiotik boʻlib koʻp spektrga ega boʻlgan preparat boʻlib chiqdi, tuberkulyoz tayoqchasi va grammanfiy boʻlgan bir necha infeksiyon kasalliklarni chaqiruvchi va tarqatuvchi mikroorganizmlarni oʻldiradi. Usha davrlarda koʻp uchragan (odamlarda) chuma kasalligini davolovchi dori sifatida keng miqiyosida qoʻllanila boshladi va katta natijalarga erishildi, Penisillin esa yuqoridagi mikroorganizmlarning koʻpchiligiga taʼsir qilmasligi aniqlangan edi.

Streptomisinlar murakkab birikmalardan tuzilgan boʻlib, ularning asosini: streptidin, streptobiozamin tashkil qiladi.

Ularning penisillinlarga oʻxshash, lekin tuberkulyoz va brusellyoz tayoqchadarining oʻsishini toʻxtatadi. SHuning uchun tulyaremiya, listerellioz, brusellyoz, tuberkulyoz, ichak kasalliklarida va boshqalarda qoʻllash maqsadga muvofiqdir.

Streptomitsinlarning qoʻyidagi birikmalari va unumlari mavjud:

1. Streptomitsin sulfat
2. Streptosulmitsin sulfat
3. Streptomitsin - xlorkalsiyli kompleks

4. Digidrostreptomisin sulfat.

5. Digidrostreptomisin pantotenat.

Ular oshqozon-ichakdan soʻrilmaydi, shuning uchun koʻpincha inʼeksiya usulida qoʻllaniladi. YUqoridagilardan tashqari faqat chorvachilik va veterinariyada qoʻllaniladiganlari ham bor:

1. Grizin – Grysimum – Streptomyces gryseus Krainskiy.

2. Oziqa bilan beriladigan grizin

Oziqaga: 1 tonnasiga 3-5 kg qoʻshib, ayniqsa joʻjalarga beriladi;

CHOʻchqa bolalariga boshiga 100-200 mg dan oziqaga qoʻshib beriladi. SHunday qilib streptomisinli preparatlar medisinada va veterinariyada eng koʻp tarmoqli taʼsir koʻrsatuvchi preparatlar dori vositalari hisoblanadi. Ammo veterinariyada tuberkullyoz va brusellyoz kasalliklarini davolash ishlari hozirchalik kasalliklar asosan oʻrta va surunkali kechganligi, davolash ishlari ancha qimmatga tushishini hisobga olib, oldindan mutaxassislar bilgani uchun ushbu ishlar keng koʻlamda barcha xoʻjaliklarda yoʻlga qoʻyilgani yoʻq. Dori-darmomdan tashqari boshqa koʻp tarmoqli, kompleks shart-sharoitlar shu kasalligi bor chorvachilik hoʻjaliklar olib borishlari lozim boʻladi va bu tayyorgarligi va sharoitlar bor xoʻjaliklar hozircha kam sondadir.

### **Antibiotiklar — Tetratsiklinlar guruxi.**

Tetratsiklinlar - organik birikmalar boʻlib, ularning asosida makrosiklik laktam halqasi va koʻp sonli uglerod atomlari yotadi.

Tetratsiklinlar - Actinomycetales guruxiga kiruvchi mikroorganizmlardan olinadi, chunki ular ishlab chiqaradi.

Tetratsiklinlarning qoʻyidagi prepartlari yaxshi oʻrganib chiqarilgan va amaliyotda koʻp qoʻllaniladi:

1. Eritromitsin – Streptomyces erythreus ishlab chiqiladi.

2. Eritromitsin fosfat.

3. Oleandomitsin

4. Oletetrin - oleandomisin va tetratsiklindan olingan kompleks preparatdir.

5. Tilozin - har xil shtammdagi aktinomisetlardan olinadi.

6. Erisiklin - Eritromisin va oksitetrasiklinlarning aralashmasi.

Tilozin –tilosinum preparati veterinariya amaliyotida keyingi paytlarda ko'p qo'llanilmokda. Tetratsiklinlar kukun, tabletka va eritma shaklida ko'p ishlatilmoqda.

Ular grammmusbat va grammanfiy mikroorganizmlarga ham o'zining antimikrob ta'sirini ko'rsatadi. Ularni infeksiyon kasalliklarda tezroq ta'sirga ega bo'lish uchun vena qon tomiriga ham yuboriladi. Tilozinni - TPoztit veterinariya amaliyotida grammmusbat va manfiy mikroorganizmlar chaqiruvchi yuqumli kasalliklardan tashqari nafas olish organlari kasalliklarida sepsisda, jaroxatlarda, yaralanish va boshqa har xil yiringli yalliglanishlarda keng qo'llaniladi. Muskul orasiga yuborish uchun uni qo'yidagi miqdorlarda yuboriladi:

O'rtacha barcha hayvonlarda - 6000-8000 TB/kg.

Tovuqlarda - 25-30.000 TB/kg.

#### **Polienli - zamburug'larga qarshi antibiotiklar.**

Kimyoviy tarkibi murakkab tuzilishga ega bo'lgan moddalar bo'lib, 4-kam bo'lmagan bog'lamlarga ega: tetraenlar, pentaenlar, geksanenlar, heptaenlardir.

Zamburug'lar chaqiradigan kasalliklarda ishlatiladigan dori vositalariga qo'yidagilar kiradi:

1. Nistatin - uni aktinomiset *Streptomyces noursei* ishlab chiqaradi.
2. Levorin- *Streptomyces Levoris* krass- produksiyasi hisoblanadi.
3. Levorinning natriy tuzi.
4. Amfoterisin V. - aktinomiset *Streptomyces nodosus* - lar maxsulotidir.
5. Amfogyukomin - kompleks tuzdir.
6. Mikogeptin - aktinomiset *Streptomyces Streptovercillium mycoheptanicum* mahsulotidan tashkil topgan.
7. Grizeofulvin - mog'or zamburug'i *penicillum griseofulvum* —maxsulotidir. Nistatin va boshqalar achchiqsimon candidalar chaqiruvchi kandidamikoz kasalligida qo'llaniladi. Nistatin, levorin, amfoterisinV, lar malxam (maz) sifatida ham chiqariladi. Ular shilimshiq iardalar kandidamikozi, teri va ichki organlar zaralanganda ipshatiladi.

Amfoterisin - davolash qiyin bo'lgan kasalliklar: blastomikoz, kriptokokkoz, koksidioz, gistoplazmoz, mog'or mikoziarida ham davolashda effekti katta. Ularning vena qon tomiriga ham in'eksiya qilish kerak bo'ladi. Lekin asosan og'iz orqali va mahalliy surtish uchun asosan kerak bo'ladi. Ogiz orqali uzoqroq, kattaroq dozalarda qo'llaganda. allergik reaksiya va boshqa ziyonli ta'sirlari ham bo'lishi mumkin.

### **Oligosaxaridlar (aminoglikozidlar) sinfi.**

Oligosaxaridlar yoki neomisinlar - o'zining asosida har xil tuzilishdagi oligosaxaridlari bo'ladi. Ancha antimikrob ta'siri keng bo'lsada, streptokokklar, pnevmokokk, enterokokk, brusella va ko'k yiringlatuvchi tayoqchalarga ta'sir ko'rsatmaydi.

Asosan, parenteral qo'llaniladi, per os yomon so'riladi. Ushbu guruxdagi dorilarning bir qismi tabiatda nursimon zamburug'lardan:

1. neomitsinlar,
2. kanamitsin,
3. tobramisin. Bir qismi Micromonospora:
4. gentamisin Keyingi paytlarda yarimsintez yo'li bilan ham ayrimlari olingan.
5. Amikasin. Yana ularning almashtiruvchilari ham bor:
6. Neotizol
7. Monomisin - Streptomyces monomysini - maxsulidir.
8. Kanamistin .(sulidir) sulfat, monosulfat tuzlari mavjud.
9. Sizomitsin

Ular o'rta keng spektrga ega bo'lgan preparatlar hisoblanadi. Grammusbat va grammanfiylariga ham bakterisid ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan (penisillin, levomisetin, tetrasiklin, streptomisin) guruxdagi dorilarga chidamli. mikroorganizmlarini ham o'sishini tezda to'xtatadi.

Veterinariyada ko'pdan beri monomisinlar ishlatilib kelinmoqda. Uni muskul orasiga yuboriladi: koramollarga 4-6 ming TB/kg, cho'chqalarga - 2-4 ming TB/kg, qo'ylarga - 6-8 ming TB/kg, tovuqlarga - 50 ming TB/kg. Ularning tashqi, ichki, jaroxatlarda ham keng masshtabda qo'llanilmoqda.

### **Polipeptid va polimiksillar guruxi.**

Ularni har xil turdagi bacillus polymuxa lar ishlab chiqaradigan maxsulotlardan olinadi. Ularning turiga qarab harflar yoki raqamlar bilan belgilanadi. Qo'yidagi preparatlari bor:

1. Polimiksin M-sulfat,
2. Polimiksin V- sulfat,
3. Basitrasin - A -guruxga kiradi.
4. Basillixin - 10, 20 va 30.

Ularning ko'plari ayniqsa grammanfiy mikroblarga kuchliroq ta'sir qiladi. Veterinariya amaliyotida ayniqsa basitrasin ko'p qo'llaniladi, ular ko'pgina infeksiyon kasalliklardan tashqari: sekin tuzilayotgan jaroxatlarda, nekrozli yaralarda, absess, flegmona, kolit, gastro enterit va boshqa kasalliklarda ko'p qo'llaniladi.

Basillixin preparatlari - polufabrikat sifatida hayvonlarning o'sishini, semirishni tezlatish va vaqtini qisqartirish uchun ko'p qo'llaniladi. Sifrlar esa preparat tarkibidagi antibiotikning miqdorini ko'rsatadi.

### **Xar xil guruxlarga kiruvchi antibiotiklarning preparatlari.**

Olinishi yoki farmakognoziyasi xar xil bo'lgan antibiotiklarga qo'yidagi preparatlar kiradi:

1. Fumagillin - ioli efir oktitetradi karbon kislotasining maxsulidir. Uning yukoridagi ko'rsatilganlardai tashqari - amebasid ta'siri bo'lgani uchuk -amyobiaz kasalligida, asalarilarning nozematozida ham qo'llanilib kelinmoqda. Asalarilarda 1 oilasiga 20-25 mg qo'llaniladi.
2. Albomistin - uzoq ta'sir qiluvchi, ham grammmusbat va grammmanniylariga ta'sir qiladi. Prolangasiya qilingan preparat hisoblanadi.
3. Linkomitsin - Streptomyces linkolniosis lar ishlab chiqqan mahsulidan tayyorlangan. Asosan grammmusbat mikroblarga ta'sir qiladi. Har xil yo'llar bilan yuboriladi.
4. Ristomitsin sulfat - Proactinomycini nidan olingan bo'ladi.

Grammusbatlarda ta'sir ko'rsatib, grammanfiy mikroblarga va zamburug'larga ta'sir qilmaydi. Asosan venaga yuboriladi.

5. Fuzidin - natriy –Fusidium coccineum zamburug'idan tayyorlanadi. per os beriladi.

6. Grammitsidin - spora xosil qiluvchi basillus brevis . 2% spirt eritmasi chiqariladi, venada gemoliz chaqiradi. Grammisidinning pastasi, tabletkas ham bor. Asosan nosog'lom joyga qo'yiladi.

7. Geliotitsin mazi (malxam) -nurli zamburug'dan olinadi. Tubalarda chiqariladi. Har xil terikasalliklarida qo'llaniladi, jaroxatlarda 4% li mazi ishlatiladi. Infeksiya tushgan ekzemada, dermatit, yara, piodermiya, elin tilganda ishlatiladi.

8. Ekmolin - griprotamindagi eritmasi qo'llaniladi, baliqlardan birinchi bo'lib Ermoleva tomonidan olingan.

9. Gigrammitsin B- hayvonlarning, ayniqsa o'sishini ta'minlaydi, semirishini tezlatiradi va ushbu maqsadlarda qo'llaniladi. Bundan tashqari veterinariya va medisinada askaridoz kasalliklarining oldini olish va davolashda qo'llanilmoqda.

<http://k-barashek.ru/publ/13-1-0-16>

### **3. YANGI TETRATSIKLINLI PREPARATLAR FARMAKOLOGIYASI**

#### **3.1. Tetratsiklinlarni hayvonlar organizmiga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri.**

Tetratsiklinlarni hayvonlar organizmiga foydali ta'siri, ularning o'sishini tezlashtirishi avvalo ularning ichaklardagi mikroblarning sonini va sifatini o'zgartirishga bog'liqdir. Keyinchalik o'tkazilgan (Leonov va boshqalar, I.E.Mozgov, P.D.Evdokimov va boshqalar) tajribalar shuni ko'rsatdiki, ular hayvonlar organizmiga to'g'ridan-to'g'ri ham ta'sir qilar ekan.

Ularning to'g'ridan-to'g'ri ta'siri ko'pgina formalarda bo'ladi. Eng asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

1. To'qimalar adsorbsiyalanish tezligini ko'paytiradi va metabolitlarni iste'mol qilishni stimullaydi, shu bilan birgalikda energiyani rasxod qilishning pasayishi kuzatiladi.

2. Organizmda gormonlar sinergizmi, o'stiruvchi garmonlar ko'payadi, oziqani qabul qilish kuchayadi, hamda organizmda tashqi muhitga qarshi kurashish xususiyati oshadi.

3. Tetratsiklinlar ta'sirida vitaminlar qabul qilish pasayib, to'qimalarda vitaminlarni sintez qilish esa oshadi, qand sintezi va karotindan vitamin A hosil bo'lishi tezlashadi. Sokolov (2010)

Organizmda ziyonli, keraksiz (pobochnoe) mahsulotlar kam hosil bo'lib, fermentlar sintezi esa tezlashadi. SHunday qilib, antibiotiklarning subbakteriostatik dozasi hayvon organizmini har tomonlama stimullaydi, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh hayvonlarga ta'siri ko'pgina faktorlarga bog'liq ekan. Lekin, ularning spesifik ta'siri, ya'ni ushbu fiziologik aktiv moddalarning hazm qilish organlari traktida bo'lgan mikroba metabolizmini o'zgartirishga bog'liq deb tushunish lozim. Lekin, yana keyingi tekshirishlar shuni ko'rsatdikim (Krasilnikov va boshqa ko'pgina izlanuvchilar), bu preparatlarning effekti va boshqa mikroblar mahsuloti metabolizmida boshqa o'stiruvchi yoki stimulyator moddalarga ham bog'liq o'lishi kerak.

SHunday qilib, ko'rsatilgan ikkala faktor ko'pchilik tekshiruvchilar bilan qabul qilinsada, aniq bir fikr va yo'nalishlar hozirgacha to'liq ochib tashlangan emas. Ilmiy-tekshirish hozirgacha olib borilmoqda, yangidan ilmiy va amliy yangiliklar ochilmokda.

### **3.2. Tetratsiklinlarni ximioterapevtik va ximioprofilaktik ta'sirlari.**

Tetratsiklinlarni boshqa dori vositalariga qaraganda ancha yangi gurux moddalari hisoblanadi. Undan tashqari antibiotiklarni boshqa dori moddalaridan bir necha bor ko'p qo'llaniladi, ko'p ishlab chiqariladi va natijada olinadigan effektlari ham ancha yuqori. Bunga sabab nimada ekanligini sanab o'tishga harakat qilamiz:

1. Spetsifik-maxsus ta'sir mexanizmiga ega.
2. Keng va aniq mikroob va mikroblarga qarshi aniq qarshi ta'siri bor.
3. Mikroorganizmlar hayvon organizmida hosil qilgan toksinlarni neytrallaydi.(antitoksik ta'siri.)
4. Eng kichik dozalarda ham effekti aniq bo'ladi, bu esa ancha iqtisodiy samaradorlikni olib keladi.
5. Makroorganizm (hayvon organizmi)larda ham o'zining ta'sirini yoki kuchini yo'qotmaydi.
6. Ta'siri tez va aniq, ko'zga tez tashlanadigan davolovchi va profilaktik o'zgarishlar ro'yobga chiqadi.
7. Amaliyotda qo'llaniladigan antibiotiklar eng kam zaxarli ta'sirga ega bo'ladi. Ular yuqorida ko'rsatilgan afzalliklarga ega bo'lib, har xil yo'nalishlar bo'yicha ta'sir ko'rsatadi va sababchilari ham son-sanoqsizdir: bakteriostatik, bakteriolitik, gelmentotsid, antitoksik, yallig'lanishga qarshi hamda makroorganizmda modda almashinuvi, bioximik prosesslarni yaxshilaydi, aktivlashtiradi. Azizova S.S (2000)

Hozirgi paytda qo'llanilayotgan antibiotiklar mikroorganizmlarning yashashiga qarshi ta'sir qiladi va ularning yo'llari ko'p va xilma-xildir. Lekin, ayrim-vrachlarning xato qilgan vaqtlarida makroorganizmlarga ham ziyon keltirishi mumkin. SHuning uchun ularni qo'llashdan avval aniq diagnoz qo'yiladi, keyin

qaysi antibiotikni qo'llash to'g'ri belgilangach ishlata boshlaydi. Barcha sharoitlar inobatga olinadi: hayvonning yoshi, turi, jinsi, umumiy holati, semizligi, boqish, saqlash sharoitlari va boshqalar. Masalan: Sepsisda - eng maksimal dozasi, buyrak kasalligida - eng minimal dozasi buyuriladi.

### **Tetratsiklinlarni qo'llash usullari va shakllari.**

Har xil yuqumli kasalliklarni davolash uchun antibiotiklarning fiziko-kimyoviy xossalari, ta'sir mexanizmi, molning holati, turi va boshqalarga qarab har xil usullarda qo'llaniladi. Hamda turli xil shakllarda chiqariladi.

1. Kukun (sepish uchun) tashqi qo'llash uchun;
2. Kukun, tabletkalar — og'iz orqali yuborish uchun.
3. Flakonlarda - in'eksiya-parenteral qo'llash uchun ( muskul orasiga, teri-ostiga yuborish uchun).
4. Aerosol - hidlatish, ingalyasiya uchun.

Tetratsiklinlarning hammasi ham barcha mikroorganizmni o'ldira olmaydi. Ayrimlariga bakteriostatik ta'sir ko'rsatadi, ayrimlariga umuman ta'sir qilmaydi. SHuning uchun ham ularni qo'llashdan avval ularning ta'sir mexanizmini, yuborish usulini, organizmga tushgan mikroorganizmlarning ham xossa va tavsifnomasini avvaldan bilib olish kerak. Ularning har biriga ko'rsatkichlari, qo'llash usullari, dozalari, necha marta bir kunda qo'llash kursini bilish lozim.

Tetratsiklinlarni dozalanishi: quruqlari – grammmda, suyuqlari - ml da bo'ladi. Dozalarni qo'llashda ham ko'pgina sharoitga qaraladi. CHunki ular yallig'lanish, hatto nekroz chaqirishi mumkin va kech sekin so'riladi. Muskul orasiga va venadan tez so'rilib shimilib, tezda yuqori konsentrasiya hosil qiladi va kasal tez sog'ayadi.

Og'iz orqali beriladiganlarining kukun, aralashma, granula, primekslarni ko'p sonli hayvonlarga, bo'rdoqilarga boqilayotganlariga berish juda qulay, hayvonni bezovta qilinmaydi. Ularni emga, ayrimlarini ichayotgan suvga, konsentrat (momiq) emlarga qo'shib berish mumkin. Ta'mini yaxshilovchi birikmalar qo'shiladi. Zavodlarda ko'pincha silikon moddasi qo'shiladi. YUqoridagilardan tashqari vrach necha marta va necha kun qo'llash kerakligini bilish kerak. Odatda

oʻtkir yukimli kasalliklarda 5-7 kun antibiotik qoʻllaniladi. Agar diagnoz toʻgʻri qoʻyilgan boʻlsa va toʻgʻri antibiotik qoʻllanilgan boʻlsa kasal hayvon sogʻayishi kerak, agar unday boʻlmasa uni almashtirish, boshqa preparat . buyurish va kombinasiyalashgan davolash ishlari olib boriladi.Sokolov V.D (2010)

### **3.3. Tetratsiklinli preparatlar farmakologik tasnifi.**

Hozir mamlaktimizning veterinariya amaliyotida tetratsiklinlar guruxiga kiruvchi preparatlarning deyarli barchasi chet mamlakatlardan keltirilmoqda. Bu preparatlar mamlakatimizda yaqin paytdan beri qoʻllanilayotganligi sababli uning farmakologiyasi bizning mamlakatimiz sharoitida toʻligʻicha oʻrganilmagan.

Hozir Oʻzbekiston veterinariya amaliyotida tarkibida taʻsir etuvchi modda – oksitetratsiklin saqlovchi yangi tetratsiklin guruhi antibiotiklari keng qoʻllanilmoqda. Bu preparatlar mamlakatimizga Gollandiya, Rossiya, Xitoy, Hindiston kabi farmatsevtik sanoati rivojlangan mamlakatlardan keltirilmoqda. Preparatlar Oʻzbekiston veterinariya registratsiyasidan oʻtkazilgan boʻlib veterinariya amaliyotiga qoʻllashga ruxsat etilgan. Xozir Oʻzbekiston veterinariya amaliyotida eng koʻp qoʻllanilayotganlari quyidagilar.

Oksitetratsiklin 5%,10%,20%

Razomitsin 20%

Nitoks 20%

O-tetra 10%

Limoksin 100, 200

Adamitsin 10%

Men bitiruv malakaviy ishimni bajarishda yangi tetratsiklinli preparatlardan quyidagilarni oʻrganishga xarakat qildim.

**Oksitetratsiklin** – parenteral yoʻl bilan qoʻllaniladigan suvli eritma. 10, 50, 100 ml hajmli flakonlarda, 5%, 10% yoki 20 % li konsentratsiyali eritma shaklida ishlab chiqiladi.

Tarkibi: 1 ml eritmada

Oksitetratsiklin 1 ml yoki 50, 100, 200 mg

Ta'siri. Oksitetratsiklin antibiotiklarni tetratsiklin guruxiga mansub bo'lib, ko'plab gramm musbat va gramm manfiy bakteriyalarga bakteriostatik ta'sir etadi, jumladan bardetella, xlamidiylar, kampilobakteriyalar, ichak tayoqchasi, gemoglobinoofil bakteriyalar, mikroplazma, pasterella, rikketsiyalar, salmonella, stafilokokklar, streptokokklar. Preparatni ta'sir mexanizmi bakteriya xo'jayrasida oqsil sintezini buzishdan iborat. Preparat organizmdan siydik, o't suyuqligi va sut bilan ajralib chiqadi.

Qo'llash: Artrit, buzoqlar, qoramol, cho'chqa, qo'y va echkilarni nafas yo'llari va oshqozon – ichak infeksiyalarida; oksitetratsiklinga mikroorganizmlarni sezuvchanligiga yuqori bo'lgan barcha infeksiyalarda jumladan, bardetella, xlamidiylar, kampilobakteriyalar, ichak tayoqchasi, gemoglobinoofil bakteriyalar, mikroplazma, pasterella, rikketsiyalar, salmonella, stafilokokklar, streptokokklar.

Qo'llash ta'qiqlanadi. Hayvonni tetratsiklinga individual sezuvchanlik bo'lsa, jigar va buyrak funksiyalari buzilgan bo'lsa, penitsillin bilan birga qo'llash ta'qiqlanadi.

Noxush ta'siri: Allergik reaksiya, yosh hayvonlar tishlari oqarishi, in'eksiya qilingandan so'ng kuzatiladigan maxalliy reaksiyalar.

Doza: Muskul orasiga qo'llaniladi.

3. Katta hayvonlarga: 1 ml 10-20 kg vazni 3-5 kun

4. YOsh xayvonlarga: 2 ml 10-20 kg vaznga 3-5 kun.

In'eksiya qilinadigan joyga yuboriladigan preparat miqdori qoramolga 20 ml, cho'chqa 10 ml, qo'y-echki 5 ml, hajmdan oshmaslik kerak.

Preparat qo'llanilgan davrda go'sht-12 kungacha, sut-7 kungacha ovqatga ishlatilmaydi. <http://vet43.ru/catalogue>

**Nitoks-** parenteral yo'l bilan qo'llaniladigan suvli eritma. 50-100 ml hajmli flakonlarda, 20 % li konsentratsiyali eritma shaklida ishlab chiqiladi.

Tarkibi: 1 ml eritmada

Oksitetratsiklin digidrat - 200 mg

Ta'siri. Preparat uzoq ta'sir xususiyatiga ega bo'lib, ko'plab gramm musbat va gramm manfiy bakteriyalarga bakteriostatik ta'sir etadi, jumladan xlamidiylar,

korinebakteriyalar, klostriyalar, ichak tayoqchasi, gemoglobinoofil bakteriyalar, aktinobakteriyalar, mikroplazma, pasterella, rikketsiyalar, spiroxitalar, mikoplazmalar, salmonella, stafilokokklar, streptokokklar. Preparat muskul orqali yuborilganda tez qonga suriladi va 30-50 minutdan keyin to'qimalarda maksimal to'planadi. Antibiotikni terapevtik darajasi to'qimalarda 60-72 soat saqlanadi. Organizmdan siydik va o't suyuqligi orqali, sut beradigan hayvonlarda sut bilan chiqib ketadi.

Qo'llash: oksitetratsiklinga mikroorganizmlarni sezuvchanligiga bo'lgan infeksiyalarda: respirator kasalliklardan mastitda, pasterellyozda, to'qyo chirishida, keratokon'yutivitda, sepsisda, yiringli yaralarda, tug'ruqdan keyingi infeksiyalarda, anaplozmozda.

Qo'llash taqiqlanadi. Hayvonni tetratsiklinga individual sezuvchanlik bo'lsa, bo'g'ozlikni birinchi oyida, estrogenlar va kortikosteroidlar bilan birga qo'llash ta'qiqlanadi.

Noxush ta'siri: Allergik reaksiya, in'eksiya qilingandan so'ng kuzatiladigan maxalliy reaksiyalar.

Doza: Muskul orasiga qo'llaniladi.

Hayvonlarga: 1 ml 10 kg tirik vazniga, qayta in'eksiya 72 soatdan so'ng

In'eksiya qilinadigan joyga yuboriladigan preparat miqdori qoramolga 20 ml, cho'chqa 10 ml, qo'y-echki 5 ml, hajmdan oshmaslik kerak.

Preparat qo'llanilgan davrda go'sht-12 kungacha, sut-ovqatga ishlatilmaydi.  
<http://vet43.ru/catalogue>

**Limoksin** – Limoxin parenteral yo'l bilan qo'llaniladigan suvli eritma. 100 ml hajmli flakonlarda, 10 yoki 20 % li konsentratsiyali eritma shaklida ishlab chiqiladi.

Tarkibi: 1 ml eritmada

Oksitetratsiklin 100 ml yoki 200 mg

Ta'siri: oksitetratsiklin tetratsiklin guruxiga mansub bo'lib, ko'plab grammusbat va gramanfiy bakteriyalarga bakteriostatik ta'sir etadi, jumladan bardetella, xlamidiylar, kampilobakteriyalar, ichak tayoqchasi, gemoglobinoofil

bakteriyalar, mikroplazma, pasterella, riketsiyalar, salmonella, stafilokokklar, streptokokklar. Preparatni ta'sir mexanizmi bakteriya xo'jayrasida oqsil sintezini buzishdan iborat. Preparat organizmdan siydik, o't suyuqligi va sut bilan ajralib chiqadi.

Qo'llash: Artrit, buzoqlar, qoramol, cho'chqa, qo'y va echkilarni nafas yo'llari va oshqozon – ichak infeksiyalarida agar oksitetratsiklinga mikroorganizmlarni sezuvchanligiga yuqori bo'lsa, jumladan bardetella, xlamidiylar, kampilobakteriyalar, ichak tayoqchasi, gemoglobinofil bakteriyalar, mikroplazma, pasterella, riketsiyalar, salmonella, stafilokokklar, streptokokklar.

Qo'llash taqiqlanadi. Hayvonni tetratsiklinga individual sezuvchanlik bo'lsa, jigar va buyrak funksiyalari buzilgan bo'lsa, penitsillin bilan birga qo'llash ta'qiqlanadi.

Noxush ta'siri: Allergik reaksiya, yosh hayvonlar tishlari oqarishi, in'eksiya qilingandan so'ng kuzatiladigan maxalliy reaksiyalar.

Doza: Muskul orasiga qo'llaniladi.

1.Katta hayvonlarga: 1 ml 10-20 kg vazni 3-5 kun

2.YOsh xayvonlarga: 2 ml 10-20 kg vaznga 3-5 kun.

In'eksiya qilinadigan joyga yuboriladigan preparat miqdori qoramolga 20 ml, cho'chqa 10 ml, qo'y-echki 5 ml, hajmdan oshmaslik kerak.

Preparat qo'llanilgan davrda go'sht-12 kungacha, sut-ovqatga ishlatilmaydi.  
<http://vet43.ru/catalogue>

#### **4. VETERINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODI**

Xayvonlarni asrab boqish ishlari hozirgi vaqtda xo‘jalikda yangi bozor iqtisodiyotiga moslashtirilyaoti va zootexniya, veterinariya ishlariga katta rtibor berilmoqda, hayvonlar asosan yoppasiga veterinariya ko‘rigidan o‘tkaziladi. Bu vaqtda qo‘ylarni emlash va degelmintizatsiya gijjasizlantirish, kabi tadbirlar ham reja asosida olib boriladi hayvonlardan olingan qonar yoki majburiy so‘yilgan hayvonlarni ichki organlari veterinariya labarato‘riyasiga jo‘natiladi.

Xo‘jaliklarda veterinariya mutahasislari barcha qoidalariga rioya qilishda xo‘jalikka qarashli aholi yashaydigan teritoriyalarda veterinariya holati sistematik o‘rganilib o‘rganilib boriladi. Veterinariya xizmatini mablag‘ bilan taminlash xo‘jalikda o‘tkaziladigan barcha tadbirlarni o‘tkazish uchun sarflanadigan dori – armonlar asboblari emlashemlash uchun vaksinalar “zoovetsnab” tashkiloti va vetdorixonalar tomonidan ta‘minlanadi. Bu masalalarga esa xo‘jalikpul o‘tkazadi.

Emlash uchun vaksina va zardoblar davlat tomonidan bepul beriladi. Rejalashtirilgan mablag‘ bilan ta‘minlash xo‘jalik tomonidan amalgam oshiriladi. Bularni molxonani mexanik tayyorlash, hashorat va kemiruvchilarga qarshi kurashish va tug‘ruq vaqtida o‘tkaziladigan veterinariya tadbirlari barcha turdagi hayvonlarni davolash uchun vetdavolash izolyatorlari to‘la ta‘minlangan.

Veterinariya proflaktik va epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasibarcha xo‘jalik, tuman, shaxar viloyatlarda har yili doimiy ravishda tuzilib, ushbu reja 3 qisimdan iborat bo‘ladi.

- 1 diagnostik tekshiruvlar
2. proflaktik immunizatsiya emlashlar.
3. davolash va proflaktik ishlov berish.

1. Diagnostik tekshiruvlar: brusellez, tuberkulez - 2 marta 1 yilda, paratuberkulez enteriti, trixomonoz, leykoz, qoramol vibrioz, yilqilarning qochirish kasalligi, pulloroz kabilarga o‘tkaziladi.

2. Profilaktik immunizasiya-emlashlar: kuydirgi, qorason, saramas, leptospiroz, pasterellez, o‘lat va Aueski kasalliklariga qarshi.

3. Turli parazitlar kasalliklarga qarshi ximioprofilaktika va davolash muolajasi o'tkaziladi.(Rejaning namunasi ilova kilinadi)

Epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasida epizootik ahvolga qarab hayvonlarning brusellez, tuberkulez, paratuberkulez, enterit, trixomonoz, leykoz, vibrioz, manka, qochirish kasalligi, parrandalarning pullorozi va boshqa diagnostik tekshirish mo'ljallanadi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining yuqumsiz kasalliklari mamlakatning chorvachilik xo'jaliklariga sezilarli iqtisodiy zarar keltiradi.

